



O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARНИ
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI

IDENTIKLIK SOTSILOGIYASI

MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY
MAJMUA

2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

“Identiklik sotsiologiyasi”

**moduli bo'yicha
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Toshkent – 2025

Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: O‘zMU “Sotsiologiya” kafedrasи professori,
sots.f.n., prof. K.Kalanov

Taqrizchi: Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti dotsenti, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, F. Abduvaliev

*O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024- yil “29” noyabrdagi 4-sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI....	17
III. NAZARIY MA'LUMOTLAR.....	20
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	50
V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	59
VI. KEYSLAR BANKI.....	58
VII. GLOSSARIY.....	60
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	62

I.ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28- yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14- son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, biologiya fanini o‘qitishda IT (information texnologiyalar) ma’lumot materiallaridan foydalanish, biologik makromolekulalar va ularning axamiyatini ochib berish, organizmda energiya almashinuv jarayonlarini tahlil etish va baholash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Sotsiologiya**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;

- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

- “**Sotsiologiya**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;

- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;

- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;

- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejahlari, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;

- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;

- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;

- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;

- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;

- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;

- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiylari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalislarni;

- zamonaviy ta’limning global trendlarini;

- inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagи ahamiyatini;

- oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;

- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;

- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
 - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
 - pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarini rivojlantirishga ta’sirini;
- kasbiy kompetetnsiyalarini rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda uchraydigan to‘sislarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
 - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
 - ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
 - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
 - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
 - sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasini;
 - miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlarning amaliy va empirik jihatlarini;
 - empirik sotsiologik tadqiqotlar jarayonidagi asosiy tushunchalar: metodologiya, metodika, texnika, protsedurani;
 - sotsiologik tadqiqotlarning nazariy-metodologik strukturasini;
 - miqdoriy tadqiqotlardagi asosiy harakat turlari: tadqiqot dasturini tayyorlash, ma’lumotlar yig‘ish, ma’lumotlarni;
 - sifatiy sotsiologik tadqiqotlar dasturi. Sotsiologik tadqiqotlarda metodologiyaning o‘rni va ahamiyatini;
 - sifatiy sotsiologik tadqiqotlar texnikasini;
 - sifatiy sotsiologik tadqiqot bosqichlarini;
 - identiklik sotsiologiyasining vujudga kelishi, ob’ekti va predmetini;
 - identiklik va mentalitet tamoyillari, qonuniyatları, funksiyalarını;
 - multikulturalizm va marginallikni;
 - etnosotsiologiya va din sotsiologiyasi fanlarida nazariy-uslubiy jihatdan identiklik g‘oyasini zamonaviy jihatdan tadqiq etilishini;

- etnosotsiologiya va sotsial antropologiya fanlarida identiklik sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o‘rnini;
- identiklikning ijtimoiy morfologiyasi va tipologiyasini;
- identiklik va mentalitet shakllanishida ijtimoiy me’yorlar, hulq-atvor va hayot tarzining ta’sirini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- tadqiqotlar o‘tkazish metodologiyasi, texnikasi, protsedurasi va metodlarini aniqlash, farqlari va o‘xshash jihatlarini tahlil etish;
- sifatiy sotsiologik tadqiqotlar dasturidan foydalanish;
- sotsiologik tadqiqotlarda identiklikning o‘lchov strategiyalarini

prognozlashtirishga oid qarashlarning tahlil etish;

- inson kapitalini tadqiq etishda identiklikning nazariy va amaliy tadqiqot metodlarini qo'llash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- Oliy ta'lif, fan va innovatsiya vazirligining ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lif standartlari, ta'lif yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- an'anaviy va raqamli ta'lifda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta'lif resurslaridan foydalanish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarining tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta'lif muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarining ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarining kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetetnsiyalarini rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta'lif sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarining salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;

- sotsiologik tadqiqotlarda metod va metodologiya tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tahlil etish;
- ma’lumotlar yig‘ish metodlarini umumiy tasnifi va turlarini ajratish;
- identiklik, o‘zlikni anglash va mental xususiyatlarini ilmiy baholashga oid zamonaviy nazariya va metodologiyalarini sotsiologik baholash;
- o‘zgaruvchan axborotlashgan dunyoda identiklikning o‘rni va ahamiyatini olib berish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish:
 - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
 - Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minalash;
 - raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
 - raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
 - raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
 - universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
 - OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
 - «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo’llash;
 - professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘silarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
 - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
 - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
 - talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
 - miqdoriy tadqiqotlardagi asosiy harakat turlari: tadqiqot dasturini tayyorlash, ma’lumotlar yig‘ish, ma’lumotlar tahlil etish;
 - sotsiologik tadqiqotlarda metodologiyaning o‘rni va ahamiyatini yoritib berish;
 - identiklik sotsiologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;

- fundamental va amaliy tadqiqotlar doirasida identiklik muammoning horijiy tajribaga asoslanib empirik imkoniyatlarini amalga oshirish;
- zamonaviy akademik sotsiologiya ilmiy maktablarining shakllanishi va rivojlanishining sotsial qonuniyatlarga o‘tish jarayonlarini kuzatish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

- Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.
- Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:
- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Identiklik sotsiologiyasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari”, “Pedagogik faoliyatda raqamlı kompetensiyalar” “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyoragarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida genom tadqiq etishga, katta ma’lumotlar va nukleotid va oqsil ketma-ketliklar ma’lumotlar bazasi tizimlaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaiymashg‘ulot
1.	Identiklik sotsiologiyasining vujudga kelishi, ob’ekti va predmeti.	4	2	2
2.	Zamonaviy akademik sotsiologiya ilmiy maktablarining shakllanishi va rivojlanishining sotsial qonuniyatlarga o‘tish jarayonlarini kuzatish	6	2	4
3.	Multikulturalizm va marginallik	4	2	2
4.	Etnosotsiologiya va sotsial antropologiya fanlarida identiklik sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o‘rni	4	2	2
	Jami:	18	8	10

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Identiklik sotsiologiyasining vujudga kelishi, ob'ekti va predmeti.

Identiklik sotsiologiyasining vujudga kelishi, ob'ekti va predmeti. Identiklik va mentalitet tamoyillari, qonuniyatlar, funksiyalari. Etnosotsiologiya va din sotsiologiyasi fanlarida nazariy-uslubiy jihatdan identiklik g'oyasini zamonaviy jihatdan tadqiq etilishi. Fundamental va amaliy tadqiqotlar doirasida identiklik muammoning horijiy tajribaga asoslanib empirik imkoniyatlarini amalga oshirish

2-mavzu: Zamonaviy akademik sotsiologiya ilmiy mакtablarining shakllanishi va rivojlanishining sotsial qonuniyatlargacha o'tish jarayonlarini kuzatish.

Zamonaviy akademik sotsiologiya ilmiy mакtablarining shakllanishi va rivojlanishining sotsial qonuniyatlargacha o'tish jarayonlarini kuzatish. Identiklik, o'zlikni anglash va mental xususiyatlarini ilmiy baholashga oid zamonaviy nazariya va metodologiyalarini sotsiologik baholash.

3-mavzu: Multikulturalizm va marginallik.

Multikulturalizm va marginallik. O'zgaruvchan axborotlashgan dunyoda identiklikning o'rni va ahamiyatini ochib berish. Sotsiologik tadqiqotlarda identiklikning o'lchov strategiyalarini prognozlashtirishga oid qarashlarning tahlili. **4-mavzu: Etnosotsiologiya va sotsial antropologiya fanlarida identiklik sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o'rni.**

Etnosotsiologiya va sotsial antropologiya fanlarida identiklik sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o'rni. Ijtimoiy fanlar tizimida identiklik masalasini o'rganishning zaruriyati: identiklik sotsiologiyasi, identiklik antropologiyasi va identiklik psixologiyasi. Inson kapitalini tadqiq etishda identiklikning nazariy va amaliy tadqiqot metodlari. Identiklikning ijtimoiy morfologiyasi va tipologiyasi. Identiklik va mentalitet shakllanishida ijtimoiy me'yorlar, hulq-atvor va hayot tarzining ta'siri.

O'QITISH SHAKLLARI

- Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:
- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilibotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

6. Ўзбекистон Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.

3. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

4. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

5. Virtualnaya realnost kak novaya issledovatelskaya i obrazovatelnaya sreda. Serfuz D.n. i dr. // JURNAL Nauchno-analiticheskiy jurnal «Vestnik Sankt-

- Peterburgskogo universiteta Gosudarstvennoy protivopojarnoy slujbi MCHS Rossii», 2015. – s.185-197.
6. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.
 7. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
 8. Kiryakova A.V, Olxovaya T.A., Mixaylova N.V., Zaporojko V.V. Internet-texnologii na baze LMS Moodle v kompetentnostno-oriyentirovannom obrazovanii: uchebno-metodicheskoye posobiye / A.V. Kiryakova, T.A. Olxovaya, N.V. Mixaylova, V.V. Zaporojko; Orenburgskiy gos. un-t. – Orenburg: OGU, 2011. – 116 s. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf
 9. Kononyuk A.YE. Oblachniye vichisleniya. – Kiyev, 2018. – 621 s.
 10. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
 11. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.
 12. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.
 13. Tendensi i razvitiya visshego obrazovaniya v mire i v Rosii. Analiticheskiy doklad-daydjest. - M., 2021.- 198 s.
 14. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285
 15. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoyev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.
 16. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
 17. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
 18. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv- metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
 19. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv- metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
 20. Pecherkina, A. A. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Simanyuk, YE. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.
 21. O.S. Frolova. Formirovaniye innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povisheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.
 22. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronniy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

23. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
24. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
25. Kodjasirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornix konspektax./ - M.:Ayris-press, 2016.
26. Natanzon E. Sh. Priyemi pedagogicheskogo vozdeystviya. - M, 2012. - 202 s.
27. Sergeyev I.S. Osnovi pedagogicheskoy deyatelnosti: Uchebnoye posobiye. – SPb.: Piter, 2014.
28. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
29. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
30. Barkov S. A., Zubkov V.I. Sotsiologiya organizatsiy. M.: YURAYT, 2018.
31. Barkov S.A. Organizatsiya i rinok: protivoborstvo ili soglasije? M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 2008.
32. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
33. Bols N. Azbuka media. / Per. s nem. L.Ionin, A.Chernix. - M.: Yevropa, 2011. – 136 s. <http://en.bookfi.net/book/1405627>
34. Giddens E., Satton F. Osnovniye ponyatiya v sotsiologii. – M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2018.
35. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
36. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
37. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
38. Yoas X., Knebel V. Sotsialnaya teoriya. 20 vvodnix leksiy. – SPb.: Aleteyya, 2015. <https://search.rsl.ru/ru/record/01007580496>
39. Istorya sotsiologii (XIX – seredina XX veka). – M.: INFRA-M, 2004. <https://search.rsl.ru/ru/record/01002465303>
40. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
41. Kastels M. Vlast kommunikatsii: ucheb. posobiye / M. Kastels; per. s angl. N. M. Tilevich; pod nauch. red. A. I. Chernix; Nats. issled. un-t «Vissaya shkola ekonomiki». — M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2016. — 564 s.
<https://yadi.sk/d/UC0SzNIk3Mj7qk>
42. Kimelev Y.A., Polyakova N.L. Modern i protsess individualizatsii: istoricheskiye sudbi individua moderna. – M.: IITS

43. Kolomiyets V. P. Sotsiologiya massovoy kommunikatsii v obshchestve kommunikatsionnogo izobiliya // Sotsiologicheskiye issledovaniya. 2017. №6. S.3-14. http://www.isras.ru/index.php?page_id=2624&jid=6721&jn=socis
44. Konetskaya V.P. Sotsiologiya kommunikatsii / V.P. Konetskaya. - M.: Mejdunarodniy universitet biznesa i upravleniya, 1997. – 304 s.
45. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv- metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
46. Nazarov M.M. Massovaya kommunikatsiya i obshchestvo. Vvedeniye v teoriyu i issledovaniya / M.M. Nazarov. — M.: Librokom, 2014. — 354 s.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. www.Ziyonet.Uz
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

1. "Keys-stadi" metodi «Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rghanmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natiya (What).

"Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<input type="checkbox"/> yakka tartibdagи audio-vizual ish; <input type="checkbox"/> keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); <input type="checkbox"/> axborotni umumlashtirish; <input type="checkbox"/> axborot tahlili; <input type="checkbox"/> muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; <input type="checkbox"/> asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; <input type="checkbox"/> har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; <input type="checkbox"/> muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<input type="checkbox"/> yakka va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; <input type="checkbox"/> ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; <input type="checkbox"/> yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys: Muammo sifatida turli xil jamiyatdagi madanit na'munalari olinadi. Bu turli jadvallar orqali solishtirma materiallar tayyorlanadi. Madaniyatning davriy o'zgarishi tendensiyalari aniqlanadi. Buning sabablarining umumiy taraflari o'rganiladi

Keysni bajarish bosqchilarini va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Dasturni to'g'ri ishlashi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

2. "Assesment" usuli

Usulning maqsadi: mazkur usul ta'lif oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi. Usulni amalga oshirish tartibi:

"Assesment"lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu

yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Na'muna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

3. "Tushunchalar tahlili" usuli:

Usulning maqsadi: mazkur usul talabalar yoki qatnashchilarini mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Usulni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Na'muna: "Ma'ruzadagi tayanch tushunchalar tahlili"

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
<i>Madaniy burilis</i>	<i>Kundalik hayotdagagi madaniyatni mazmuni borasidagiturli hil yodashuvlari tushunish va izohlash uchun ishlatiladigan tushuncha</i>	
<i>Madaniy nisbiylik</i>	<i>Har bir jamiyatning madaniyatni umumiylar sharoitdan kelib chiqib erishilgan deb tushunuvcchi va madaniyat shakkiali boshqa madaniyat shakkiali bilan o'lchanmaslik haqidagi tushuncha</i>	
<i>Madaniy universalizm</i>	<i>Me'yorlari, o'lchamlari bilan madaniyatni jamiyatni barcha qatlamlarida birdek amal qilishi haqidagi tushuncha</i>	
<i>Madaniy talvasa</i>	<i>Insonda o'zi birinchi marta o'zi uchun tanish bo'lmagan madaniyat elementlari bilan duch kelaganda yuzaga chiqadigan ijtimoiy-ruhiy beqarorlik</i>	
<i>Ommalashuv</i>	<i>Oldin yuz bergen kichik hodisalar orqali voqealikning yanada kengayishi va ommalashishi haqida tushuncha</i>	
<i>Ahloqiy vahima</i>	<i>Ma'lum bir guruhi va jamoatchilik muammo yuzasidan jamoachilikning havotirining oshib borishi odatda bu ijtimoiy nazaorat tarbini kuchaytishish uchun qo'llaniladi.</i>	
<i>Monogamiya</i>	<i>erkak va ayol o'rtaida juftlikka asoslangan nikoh turi</i>	
<i>Islohotlar</i>	<i>O'zgarish, qayta qurish ma'nolarini anglatadi</i>	

BBB jadvali

<i>Nº</i>	<i>Mavzu savollari</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni istayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1	2	3	4	5
1.	Jamiyatning sotsiomadaniy tizimi			
2.	Din sotsiomadaniy institut sifatida			
3.	Madaniyatlar transformatsiyasi			
4.	Madaniyatning shakllanish taraqqiyoti			
5.	“Submadaniyat” tushunchasi			

B.B.B. texnikasi

B.B.B. jadvali:
Bilaman, Bilishni hohlayman, Bildim.

- matn (mavzu, bo‘lim) bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;

-tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko‘nikmalarin rivojlantiradi.

B.B.B jadvalini tuzish qoidalari bilan tanishtiradi. Yakka tartibda (juftlikda) jadval rasmiylashtiriladi.

Qo‘yidagi savolga javob beriladi:
Ushbu mavzu bo‘yicha siz nimani bilasiz?” va “Nimani bilishni

Yakka tartibda (juftlikda) jadvalning 1 chi va 2 chi ustuni to‘ldiriladi.

Mustaqil ravishda ma’ruza matnnini o‘qiydi (ma’ruzani eshitadi)

Jadvalning 3-ustunini mustaqil (juftlikda) to‘ldiradi.

B texnikasining qoidasi

1. “Insert” texnikasidan foydalanilgan holda matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo‘yilgan belgilar asosida BBB jadvalini to‘ldiring.

“Insert” texnikasining qoidasi:

1. Matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni diqqat bilan o‘rganib, sohalarga ajrating. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman;

+ – yangi ma’lumot;

– – bilganlarimga zid;

? – meni o‘ylantirmoqda.

II. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

- 1- MAVZU: Identiklik sotsiologiyasining vujudga kelishi, ob'ekti va predmeti.

Reja:

- 1. «Milliy identiklik» tushunchasining mazmun-mohiyati**
- 2. Fundamental va amaliy tadqiqotlar doirasida identiklik va madaniyatning o'r ganilishi**
- 3. Milliy identiklik va milliy o'zlikni anglash muammolarini sotsiologik tadqiq etish metodologiyasi**

Tayanch iboralar:

Identiklik, kundalik hayot, turmush tarzi, madaniyat sotsiologiyasi, sotsiologiya, madaniy na'muna, madaniy birlik, madaniy qoloqlik, kundalik hodisa

«Milliy identiklik» tushunchasining mazmun-mohiyati

Bugungi kunda kechayotgan dunyoning globallashuvi jarayonlari ijtimoiy fanlarlarda «identiklik» masalasiga berilayotgan o'ziga xos yondashuvlarni atrof-muhitda ro'y berayotgan sotsiomadaniy o'zgarishlar, jumladan dunyo xaritasida yangitdan paydo bo'lgan davlatlarning tasnifi bilan ham aks ettiradi. Identiklik (identifikatsiya) atamasi ingliz tilidan (identity) olingan bo'lib – «aynanlik», «mansublik» ma'nolarida qo'llaniladi.¹ Identiklik kichik sotsial guruhlar, sinflar, hududiy birliklar, etnik va milliy guruhlar, xalqlar, sotsial harakatlar, shuningdek, davlat va global miqyosda butun bir insoniyat bilan bog'liq tushunchadir. Bunda inson sotsial munosabatlar tizimidagi madaniy sub'ekt, yoki agent (tashuvchi) sifatida o'zini idrok etadi, his etadi va baholaydi. Sotsiumda inson bir paytning o'zida o'zini bir necha sotsiomadaniy birlik va guruhlar bilan identifikatsiyalashi mumkin.² Sotsiomadaniy identiklikning individual jihatlari ozmi- ko'pmi chegaralangan tizimga ega bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlarini ierarxik tartibga solinganligi bilan ham izohlash mumkin. Bunda shaxs o'zini ayrim guruh va birliklarga ma'lum jihatdan yaqinlik nuqtai nazaridan «tegishli» deb hisoblaydi.

Identiklik ijtimoiy rivojlanish jarayonida paydo bo'lib, muayyan yaxlik strukturaga daxldorlik hissi bilan bog'liq holda, inson tomonidan o'zining ana shu strukturani bir qismi ekanligi va uning tarkibida muayyan aniq o'ringa ega ekanligini anglashni bildiradi.

Identiklik kishiga o‘z ehtiyojlarini qondirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida unga eng og‘ir azob – butkul yolg‘izlik va shubhalardan xalos bo‘lish imkonini beradi. Shulardan kelib chiqib, biz «identiklik» tushunchasiga o‘zimizning mualliflik ta’rifimizni berdik: **«Identiklik – bu rivojlanish jarayonida paydo bo‘ladi va muayyan yaxlit strukturaga mansublik hissini tuyish, shuningdek, shaxsning aynan ushbu strukturaga tegishli ekanligi va uning tarkibida muayyan aniq ijtimoiy guruhning bir qismi ekanligini anglashni bildiradi. Identiklik vositasida inson o‘zi mansub bo‘lgan ijtimoiy makondagi sotsiomadaniy ehtiyojlarini qondiradi va u orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topadi».** Shunday bo‘lsada, ayrim holatlarda identiklik milliy ruh, xarakter va o‘zlikni anglash omillari bilan e’tirof qilinadi.

Jamiyatda yetakchi va ustun hisoblangan sotsiomadaniy identifikatsiya odatda, nafaqat shaxsni, balki sotsiumda istiqomat qilayotgan avlodlarning ham o‘zini har tomonlama ijobiy baholashi yoki sotsial muhitga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq mutanosibliklarni aks ettiradi. U yoki bu identifikatsiyaning ijtimoiy strukturadagi o‘rni sotsiomadaniy kontekstning o‘zgarishi ta’sirida almashishi mumkin. Masalan, har bir davrning boshqaruv apparatidagi o‘zgarishlar yangi shaxslararo yoki avlodlararo identifikatsiyani paydo qilishi mumkin. Jumladan, XX asrning 30-60 yillardagi insonlar uchun non mukofot rolini bajarishi muqarrar edi. Ammo bugungi kun avlodiga nonning qadrini android tizimidagi texnik vositalar (kompyuter, telefon, turli maishiy texnika buyumlari) qiymati bilan solishtirish mutlaqo tushunarsiz holat hisoblanadi. **Lotincha (identus – aynanlik, mansublik, o‘xshashlik)** - shaxs tomonidan o‘zining qaysi sotsial guruhga mansubligi hamda shu sotsial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, maishiy, axloqiy stereotiplarga amal qilinishi. Identiklik insonda «MEN kimman», «MENING boshqalardan farqim nima» degan savollar asosida vujudga keladi va bunda inson o‘zlikni anglash jarayonidagi murakkab yo‘lni bosib o‘tadi.³

Yaqin vaqtlargacha «identiklik» tushunchasi ilmiy bahs-munozaralarda deyarli ishlatilmas va qo‘llanmasdi. Mazkur atamaning nazariy va empirik o‘rganish predmeti bo‘limgan. U monografiya, darslik va jurnal materiallarida uchramasdi. Bu tushunchani

hatto falsafa, psixologiya lug‘atlarining so‘nggi nashrlarida ham uchratmaymiz. Faqat so‘nggi o‘n yilliklarda «identiklik» atamasi milliy matbuot sahifalarida paydo bo‘la boshladi. Shunday bo‘lsa-da, u hamon aksariyat o‘quvchilar uchun notanish, tushunarsiz bo‘lib, odatiy ilmiy kategorial apparatga qiyinchilik bilan moslashmoqda.

Milliy identiklikni tushunishda yondashuvlar tahlilini mutahassislar instrumental, primordial va konstruktiv yondashuvlarga ajratadilar. Aynan shu yondashuvlar identiklik omilini belgilashda ko‘plab munozara va baxslarga sabab bo‘lmoqda.

Identiklik rivojlanish jarayonida paydo bo‘ladi va kishilarning muayyan yaxlit strukturaga daxldorlik hissini tuyish asosida o‘zining muayyan aniq o‘ringa egaligini u orqali namoyon etishini anglatadi. Identiklik insonga o‘z ehtiyojlarini qondirishga va jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida insonga eng og‘ir azob, ya’ni butkul yolg‘izlik va shubhalardan xalos bo‘lish imkonini beradi.

Tadqiqot ishimizda qoraqalpoq xalqi identikligini o‘rganar ekanmiz, undagi «milliy identiklik» haqidagi tasavvurni S.Shulman, P.Alter konsepsiyalari va K.Levinning «maydonlar nazariya»lariga tayanib metodologik asos sifatida ko‘rib chiqdik. S.Shulmanga ko‘ra «milliy identiklik» ta’limoti uchta asosiy jihatga ajratilib tadqiq etilgan. Bular:

- 1) etnik identiklik (etnik guruhlar);
- 2) fuqarolik identikligi (yagona davlatga birlashuv);
- 3) madaniy identiklik tuzilmasida millatning ijtimoiy madaniy birligi.⁴

Shulman g‘oyasiga ko‘ra madaniy omillarni diniy qadriyatlardagi umumiylig, tilning birligi va boshqa integrallashtirishtiruvchi jihatlar tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu konsepsiya milliy identiklik strukturasining komponentlarini qoraqalpoq milliy identikligi, ya’ni qoraqalpoqlarning O‘zbekiston tarkibidagi identikligi misolida tadqiq etishni ilgari surdik. Sotsiologik nuqtai nazardan qaralsa xalqlarning etnik identikligi ularning ijtimoiy holati va tarixi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

«Milliy identiklik» ta’limoti P.Alter nazariyasiga ko‘ra mavjud komponentlarni madaniy-milliy identiklik va fuqaroviy-siyosiy monandlikka ajratadi. Unga ko‘ra madaniy-milliy identiklik asosini – an’analar, urf-odatlar, diniy e’tiqod, til umumiyligi

qamrab oladi. Fuqaroviylar va siyosiy identiklikning shakllarini esa sotsiumda istiqomat qilayotgan aholi qatlaming siyosiy ongi va huquqiy madaniyati rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan integrallashtiruvchi omil, ya’ni jamoaviy identiklik tashkil etadi.⁵

Amerikalik tadqiqotchi K.Levin o‘zining «maydonlar nazariyasi» ta’limotida identiklik: a) «sub’ekt» (individ/davlat), b) «atrof-muhit fazosi» (E-enviranment) va v) «hayot fazosi» (L-life) orqali shakllantiriladi. Identiklik (I-identitiy)ni modellashtirar ekan, K.Levin geografik, tarixiy, diniy, til va boshqa shu kabi unsurlarni quyidagi formulaga soladi, ya’ni I=E-L yoki «identiklik» (I) «hudud», «iqlim» (E) asnosida «sivilizatsiyalar», «mafkuralar» (L)ga tayanib milliylikni tashkil etadi.⁶

Ushbu nazariyalarga asoslanib, biz tadqiqot ishimizda qoraqalpoq milliy identikligining strukturaviy komponentlarini quyidagicha tasnifladik: a) emotsiyal-hissiy komponent; b) hulq-atvor komponenti; v) kognitivlik komponenti. O‘z navbatida, **emotsional-hissiy komponent:** a) milliy tuyg‘u; b) iftixon; v) kayfiyat; g) milliy xarakterni; **hulq-atvor komponenti:** a) fuqarolik pozitsiyasini ko‘rsatish; b) o‘zi mansub bo‘lgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash; v) ijtimoiy munosabatlar birligini taklif etish; **kognitivlik komponenti:** a) milliy ong; b) milliy o‘zlikni anglash (ratsionallik) omillarini tashkil etishini taklif qildik.

Tadqiqot mavzusi doirasida «etnik identiklik» mavzusini alohida ahamiyat kasb etib, u shaxs «ijtimoiy identikligi»ning tarkibiy qismi hisoblanadi. Identiklik kishilarda o‘zining muayyan etnik birlikka mansub ekanligini anglashga aloqadorlik hissini tuyuvchi psixologik kategoriadir. Uning tarkibida odatda ikki asosiy komponent ajratib ko‘rsatiladi: – **kognitiv** (o‘zi tegishli bo‘lgan guruhning xususiyatlari haqidagi bilim va tasavvurlar muayyan xarakteristikalar asosida o‘zini uning a’zosi, bir qismi ekanligini anglash) va **affektiv** (o‘zi mansub bo‘lgan guruhning xususiyatlari, unga mansublik mazkur a’zolikning muhimligini baholashdagi munosabatda namoyon bo‘ladi) jihatlar ajratib ko‘rsatiladi. «Ijtimoiy identiklik nazariyasida shunday fikr mavjudki, - deb yozadi Sh.Madaeva, - unda individlar yoki guruqlar o‘zlari mansub bo‘lgan identiklikni o‘zlari uchun eng mos va to‘g‘ri obraz deb hisoblaydilar»⁷.

Etnik identiklik jahon ilmida XX asrning ikkinchi yarmida etnik uyg‘onishni tushuntiruvchi bir necha konsepsiyalarda mavjud bo‘ladi. Turli xil sotsiologiya maktablari etnik identiklikning shakllanib borishini turlicha tushuntirishadi. Jumladan, a) mehnat taqsimotidagi notekisliklar tufayli rivojlanishi ortda qolayotgan mamlakatlar (xalqlar)ning etnomadaniy muvozanati buzilishiga olib kelayotgan xodisalarning rivojlangan mamlakatlar (xalqlar) iqtisodiy va texnologik ekspansiyasiga qarshilik, reaksiya sifatida; b) moddiy va ma’naviy madaniyatning unifikatsiyalashib borayotganiga qaramay, etnoslarning o‘zaro ichki munosabatlardagi faollashuviga turtki berayotgan jahondagi ijtimoiy-iytisodiy raqobat natijasi sifatida; v) iqtisodiyot va siyosatda yirik ijtimoiy guruhlar ta’sirining kuchayishi hamda ommaviy kommunikatsiya vositalari yordamida ulardagi o‘zaro jipslashishning osonlashayotgani sababli.

Sotsiologik nazariyalarga ko‘ra etnik birliklarda boshqa yirik guruhlarga nisbatan, masalan, sinflar vaziyatidan ko‘ra foydaliroq va qulayroq vaziyat tug‘ilmoqda. Etnik identiklikning shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ijtimoiy muhit va guruhlararo munosabatlarning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bir qator omillar ta’sir qilmoqda. Ulardan eng muhimlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 1) ijtimiy-siyosiy sohadagi global o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan etnoslararo munosabatlardagi o‘zgarishlar;
- 2) etnik muhitning geterogenligi yoki gomogenlegi. Birinchi guruh omillari nisbiy holatda, bir tomondan etnik birlikka mansublilikni, ikkinchi tomondan davlatga tegishlilikni anglatadi.

E’tirof qiladigani, ushbu ikki omil bir-birini to‘ldiradi. Birinchi guruh omili haqida gap borganda, ta’kidlash lozimki, ijtimoiy sohadagi muhim voqeа-hodisalar butun bir xalqdagi etnik identiklikning faollashuviga turtki berishi mumkin. Buning yorqin misoli sifatida sobiq sovet imperiyasining tarqalishi natijasida vujudga kelgan mustaqil davlatlarning titul (etakchi, asosiy) etnoslarida etnik identiklikning oldinga o‘tishi va rivojini keltirish mumkin. Bunday holatda, bir tomondan etnik birlikka mansublik (etnik, milliy identiklik) va ikkinchi tomondan davlatga mansublik (fuqarolik)ni anglash bir-birini to‘ldiradi va rivojlantirib boradi. Nemis olimi U.Bek o‘zining «Globallashuv nima?» nomli kitobida «hozirgi dunyoni, uning inqiroz va olg‘a siljishlarini «madaniy siyosat»,

«madaniy kapital», «madaniy o‘ziga xoslik», «madaniy gomogenlik» sifatida etnik, irqiy, diniy va jinsiy mansublik kabi tayanch so‘zlar bilan ifodalanadigan voqealarning mazmuniga e’tibor qilmasdan, tushunish mumkinligi» haqidagi fikr hamda qarashlarni bema’nilik» deb ataydi.⁸

Bunday vaziyatda MDH mamlakatlarida avval mavjud bo‘lgan “sovet kishisi” identikligining yangi paydo bo‘lgan mavjud etnik identiklik oldidagi “inqirozi” kuzatiladi. Bu salbiy geterostereotiplarning paydo bo‘lishi, etnik dahldorlik bilan bog‘liq negativ tuyg‘ularning shakllanishi, shuningdek, “kamsitilish”ni o‘tkir his qilish va «titul», ya’ni asosiy etnosdan madaniy yiroqlashish bilan bog‘lanib ketdi. Bunda «majburiy etniklik sindromi» namoyon bo‘lib, u «insonlarning o‘z irodasi va xohishiga qarshi o‘laroq qaysidir etnosga tegishlilik bilan ulanib ketdi va uning ijtimoiy hayoti va tafakkurida muhim xarakteristikaga aylanadi. Yangi g‘oyaviy qarashlar kishining jamiyatdagi o‘rni, huquq va majburiyatlar doirasini belgilay boshladи, natijada har bir a’zoning yangi tizimga o‘zini o‘zi identifikatsiyalashishi yuqori o‘ringa chiqadi. Tabiiyki, har qanday jamiyat yangitdan shakllanayotgan identiklikni ijobiy mazmun kasb etishini istaydi.

Ijobiy (pozitiv) identiklik ko‘pchilik odamlarga xos bo‘lib, u kishida o‘zi mansub bo‘lgan va boshqa etnik guruhlarga nisbatan tolerantlik muvozanatini namoyon etadi. Uni bir tomondan, etnik guruhning mustaqil va barqaror hayot kechirishini ta’minlovchi shart sifatida, ikkinchi tomondan, polietnik dunyoda osoyishta madaniyatlararo muloqotning shakli sifatida baholash mumkin. «Har bir inson – deb yozadi Abu Nasr Forobiy, – o‘z tabiat bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiat bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuvi mumkin. Bularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi».⁹ Shuning uchun ijobiy etnik identiklikning «me’yoriy» (norma) maqomi aynanlik kasb etadi. Uning tarkibida kishi o‘z etnik

guruhining ijobiliy obrazlari orqali boshqa etnik guruhlar bilan ijobiliy qadriyatli munosabatlarga uyg‘unlashadi.

Ijtimoiy fanlar tizimida identiklik, ya’ni mansublik «me’yor» kategoriyasi orqali ham ifodalanadi. Shakliga ko‘ra etnik mansublik ijobiliy mazmun bilan boyitilgan «tolerantlik» (bag‘ikenglik, chidamlilik) ko‘magida turli etnoslarning o‘zaro muloqot hissini «ijobiylilik» asosida shakllantiradi. Ijtimoiy hayotda «ijobiylilik» omili hamma vaqt bir xil mazmun kasb etmasligi mumkin. U «kosmopolitizm» (dunyo fuqarosi ma’nosida keladi) nazariyasidan farqli ravishda «me’yoriy» etnik identiklikka ega bo‘lgan etnomadaniy qadriyatlarni afzal deb biladi. Sotsiologik «me’yor» «aynanlik» yoki «mansublik»dan chekinib, «indifferent» (loqayd)lik va gipoidentiklik (etnonigilizm) xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin.

XX asrning 90 yillaridan boshlab dunyo xaritasining keskin o‘zgarib borishi va bir qator mustaqil davlatlarning vujudga kelishi ilmiy muloqotda «o‘zlikni anglash» g‘oyasini giperidentiklik shaklida rivojlantirib bordi. Sotsiumda etnik va fuqarolik mansublikni qo‘llab-quvvatlash yoki ulardan butunlay voz kechish geometrik progress asosida kuchayib ketdi. O‘z navbatida ushbu omilning u yoki bu ma’noda tezlashishi ma’lum bir etnik jamoalar uchun norasolik, chekhanish, etnik guruh vakillarining o‘zlik uchun uyalish hissini keltirib chiqaradi. Identiklikda o‘zidagi mansublikka nisbatan salbiy munosabatda bo‘lish, shaxsning atrof bilan ijtimoiy madaniy muloqotga kirishishida ma’lum qiyinchiliklarni sezishga olib keladi. Natijada «etnonigilistik» kayfiyat insonning o‘zidagi etnik mansublikdan begonalashuviga sabab bo‘ladi.

Etnoegoizm etnik o‘zlikni anglashda giperidentiklik shaklga aylanishi mumkin va uning asosida ijobiliy etnik identiklikka me’yordan ortiq intilish vujudga keladi. Giperidentiklik – o‘z etnosiga nisbatan mahliyolik bo‘lib, unda etnik guruhlarning bir qator xususiyatlari tabiiy ravishda afzal ko‘rishdan «begonalar» qarshisidagi o‘z ustunligiga mutlaq ishonchni shakllanishini nazarda tutadi. Bunda har bir etnoguruhning bir qator xususiyatlarini tabiiy ravishda afzal ko‘rishdan «begonalar» qarshisidagi o‘z ustunligiga mutlaq ishonchni amalga oshirish kuzatiladi. Identiklikning bunday shaklda ziddiyatlarni hal etish zo‘ravonlik ko‘rinishini kasb etishi ehtimoli katta.

Mansublikning yana bir shakli «giperidentiklik» bo‘lib, unda guruh a’zolari sotsiumda etnik ustunlikka erishish uchun qat’iy hujum tamoyiliga asoslanadi.

Sotsiologiyaga oid adabiyotlarda giperidentiklik tushunchasiga xolis qonun-qoidalar doirasida mavjud turga nisbatan harakatlanuvchi «etnoegoizm» iborasi qo‘llaniladi. Avvalgi turlarga nisbatan «etnoegoizm» tartibli harakat qiladi va jamiyatdagi qaysidir etnik guruh a’zolari bilan muloqotga kirishishda «nafrat», «g‘azab» yoki o‘z xalqi muammolarini o‘zgalar hisobiga hal etish huquqini qo‘lga kiritish hissini namoyon etadi.

Xalqlar psixologiyasini ilmiy o‘rganish hamma vaqt dolzarb muammolardan biri bo‘lishiga qaramay, uning umumiyligi tomonlari turli fan vakillari va mutaxassislarini tadqiqotlarida turlicha o‘rganilgan. Shunday bo‘lsada, muammoning xususiy tomonlari, ayniqsa ayrim etnik guruhlar, katta yoki kichik millatlarga xos xususiy tomonlar yetarlichcha tahlil etilmay qolaveradi. Nemis tadqiqotchisi V.Vundt xalqlar psixologiyasi xususida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «xalqlar psixologiyasi individual psixologiya singari mustaqil fan bo‘lib, u individual psixik jarayonlar asosida rivojlanib boradi». ¹⁰ Vundt «millat» va «xalq» tushunchalarini tenglashtirgan holda etnopsixologiyaning tadqiqot ob’ektini til, folklor va urf-odatlarning ahloq kurtaklari bilan birga o‘rganishni ta’kidlaydi. U «til xalq ruhida yashaydigan tasavvurlar, qonunlar va ularning aloqadorligini umumiyligi shaklda qamrab oladi. Afsonalar esa tasavvurlarning ilk mazmunini o‘zaro bir-biriga hissiy aloqadorlik va ulug‘vorlik ruhida namoyon etadi, urf-odatlarda mavjud tasavvur va ulug‘vorlikdagi ifodaning umumiyligi yo‘nalishlari aks ettiriladi»¹¹ – deb izoh beradi. Tabiiyki, etnik identiklik xalq psixologiyasining ifodasini beradi.

Milliy fanaticizm etnik anglashning giperidentiklik shakliga aylanishi asosida, keyinchalik u tomonidan ijobiy identiklikka haddan tashqari intilishda bo‘ladi. Bunda o‘z etnik guruhining bir qator xususiyatlarini tabiiy ravishda afzal ko‘rishdan «begonalar» qarshisidagi o‘z ustunligiga mutlaq ishonch oshishi nazarda tutiladi. Identiklikning bunday shaklida ziddiyatlarni hal etishdagi zo‘ravonlik ko‘rinishini ahamiyat kasb etish ehtimoli katta. Giperidentiklikning eng jiddiy va aggressiv turi – bu «milliy fanaticizm» bo‘lib, bunda u yoki bu ma’noda tushuniladigan etnik manfaatlar yo‘lida har qanday harakatga, hatto etnik «tozalash», boshqa xalqlarning ijtimoiy imtiyozi va imkoniyatlardan foydalanish huquqidani mahrum etish, xalqning etnik huquqlarini inson huquqlaridan ustun qo‘yish, o‘z

xalqining farovonligi yo‘lidagi kurashda har qanday qurbanliklarni oqlashga tayyor turish paydobo‘ladi.

Etnoidentiklikni anglash – bu insonlarning o‘z etnik mansubligini anglashi, ularning polietnik yoki monoetnik muhitda yashashiga qarab jiddiy o‘zgarishga uchrashi anglanadi. Etnoslararo muloqot vaziyati individga o‘zi mansub bo‘lgan va boshqa etnik guruhlarning o‘ziga xosligi haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishi uchun ko‘proq imkoniyat beradi. Muloqot etnoslarning o‘zaro bir-birlarini tushunishlari va kommunikativ ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Etnoslararo muloqot tajribasining yo‘qligi, bir tomondan, o‘zaro muloqotga bo‘lgan xohishni, ikkinchi tomondan o‘zi mansub bo‘lgan etnosga qiziqishni susaytiradi. Etnik identiklikni anglashdagi farqlar turli geterogen muhitlarda yashovchi o‘smirlarda aniqlangan. Belorussiya va Qozog‘istonda istiqomat qiluvchi rus millatiga mansub aholi orasida ushbu ko‘rsatkich qiyos qilinganda, etnik identiklik o‘z madaniyatidagi belgilardan ko‘proq farq qiladigan muhit (Qozog‘iston)da yashaydiganlarda yuqoriq bo‘ladi. Tabiiyki, bu yerda diniy identiklik omili ham katta ahamiyat kasb etadi.

Madaniy jihatdan o‘ziga yaqin bo‘lgan guruh vakillari orasida yashovchi individlar uchun o‘z etnik mansubligini anglash hayotiy muhim muammoga aylanmaydi. Shunday qilib, polietnik muhitda yashagan bola o‘z etnik identikligini aniqroq anglaydi, turli guruhlar o‘rtasidagi farqlar haqidagi bilimlarni ham ertaroq o‘zlashtiriladi. Ammo bu bilimlar qanchalik aniqligi va ijtimoiy yo‘riqlar qay darajada ijobiy bo‘lishi uning qaysi guruhga, ya’ni ko‘pchilikni yoki kamchilikni tashkil etgan guruhga mansubligiga bog‘liq. Etnosotsiologiya nuqtai nazaridan etnik mansublikni anglash, qaysi xarakteristikalar asosida shakllanishi unchalik muhim emas. Etnodifferensiyalovchi, ya’ni mazkur etnosni boshqalaridan farqlab turuvchi belgilar turlicha bo‘lishi mumkin. Rango-ranglik til, qadriyat va me’yorlar, tarixiy xotira, din, ona yer haqidagi tasavvurlar, ajdodlar to‘g‘risidagi tarixiy asotirlar, milliy xarakter, xalq san’ati va milliy kasblarda farq qilishi mumkin. Bu ro‘yxatni cheksiz davom ettirib, unda insonning yuz qiyofasi, qadimgi xitoyliklardagi singari kiyimga o‘ranish odati, yoki moddiy madaniyatning ayrim unsurlari, masalan, Markaziy Osiyoda yashaydigan koreyslar o‘zini identifikatsiyalash uchun muhim deb hisoblagan sabzovotlarni maydalash uchun ishlataqdigan o‘ziga xos

qirg'ich, milliy mazmun kasb etuvchi kichik doirachasimon stolcha, uzun yostiq, uvra kesish mashinkasi ham kirib qolishi mumkin.

Etnos vakillari tomonidan belgilarning roli va ahamiyatini idrok etishi tarixiy vaziyatga, etnosning shakllanishi bosqichiga, etnik muhitning xususiyatlariga bog'liq. Etnodifferensiyalovchi belgilar deyarli har doim muayyan ob'ektiv reallikni mavjud muhitning xususiyatlariga bog'lab ko'rsatishi mumkin. Etnodifferensiyalovchi belgilar deyarli har doim muayyan ob'ektiv reallikni, ko'pincha ma'naviy madaniyat unsurlarini o'zida aks ettiradi.

Ammo aks-sado berish u yoki bu darajada adekvat bo'lishi, u yoki bu darajada buzilgan, hatto yolg'on bo'lishi mumkin. Masalan, hozirgi etnoslar kelib chiqishining umumiyligi – bu shunchaki chiroyli mif (asotir) sifatida bir manzil yoki hudud bilan bir nechta xalq o'zini, o'zining kelib chiqishini bog'lashi mumkin. Ko'plab xalqlar maishiy madaniyatining aksariyat unsurlari faqat etnografiya muzeylaridagina saqlanib qolgan. Tarixga nazar tashlansa etnoslar paydo bo'lgan, shakllangan va tarqab ketgan. Etnik til aholining ko'p qismi tomonidan unutilgan bo'lishi va faqat birlik ramzi sifatida idrok etilishi kuzatilgan. Umuman olganda etnik birlik – bu avvalambor madaniy o'ziga xoslikning o'zi emas, balki biron-bir belgilar haqidagi tasavvurlarning umumiyligidir. Shuning uchun ham etnosni belgilar orqali aniqlash harakatlari ko'pincha muvaffaqiyatsiz kechgan. Madaniyatlarning unifikatsiyashuvi jarayonida etnodifferensial belgilar soni tobora kamayib bormoqda. Shunga qaramay yuqori mavqega ega bo'lgan etnoslar guruhi faoliyati o'zga etnik birlikka «bog'langan» bo'ladi. Buning sababi etnik identifikasiya jarayoni nafaqat individning o'zini ma'lum guruhga a'zoligini anglashi bilan, balki guruh tomonidan individning o'z qatoriga qabul qilishi, ya'ni har qanday jamiyat o'zining a'zolari qaysi guruhga mansub ekanligini belgilashi bilan bog'liqlikda kechadi.

Etnoidentiklik ko'rinishlari aksariyat individlarga monoetnik identiklik xos bo'lib, u rasmiy etnomansublikka mos keladi. Identiklikning boshqa variantlari singari u intensivlikning ko'plab darajalarida namoyon bo'ladi. Qulay ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda ijobjiy etnik identiklik g'urur, qadr-qimmat, optimizm, ishonch, qoniqish, vatanparvarlik tuyg'ulari bilan uyg'unlashib ketadi. Bundan tashqari, ko'plab tadqiqotlarda «pozitiv

guruhiy (etnik) identiklik bilan autguruhli (etnoslararo) tolerantlik o‘rtasida yaqin ichki aloqa» borligi isbotlab berilgan.

Ko‘p tomonlama identiklik shaxs uchun foydali, chunki bu unga bir guruh tajribasidan boshqa guruhga moslashishda foydalanish va o‘z guruhi qadriyatlariga ziyon yetkazmasdan yana bir madaniyat boyliklarini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Bunday odamlarni madaniyatlar o‘rtasidagi vositachi yoki ko‘prik deb atashadi. Ikki etnik guruhga mansublikni anglash va qabul qilish qorishiq (turli etnos vakillari o‘rtasidagi) nikohdan tug‘ilganlarning shaxsiy o‘sishiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Biroq zaif, o‘zining ham, begona etnik guruh bilan ham aniq namoyon bo‘lmagan identiklik bo‘lishi mumkin. Bu marginal etnik identiklikdir. Bunday achinarli holatda odam ikki madaniyat o‘rtasida muallaq qolib, ikkilanish oqibatida birontasining ham me’yor va qadriyatlarini yetarli darajada o‘zlashtirmaydi. Bu kabi marginallar, identikliklarda adashib, ko‘pincha o‘zidagi ichki ziddiyatlarga duch kelishadi. Aynan shuning uchun ular tashqi jihatdan agressiv millatchilikka moyil bo‘lishadi va bu agressivligi o‘zining yoki begona guruh foydasiga qaratilgan bo‘lishi mumkin (bunda agressiyaning yo‘nalishi ularning qaysi biri jamiyatda yuqoriqoq mavqega egaligiga qarab belgilanadi). Bu, empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, kundalik hayotda namoyon bo‘ladi. Ammo «ikki o‘lcham» modeli ham odam o‘z etnik birligini boshqa birliklar bilan o‘z ziyoniga solishtirgan holatda, uning o‘z ichki hotirjamligini saqlab qolishining barcha mumkin bo‘lgan strategiyalarini qamrab ololmaydi.

Bir yoki bir necha etnik guruhlarga mansublikni anglashning qator sathlari bor ekan, demak uning imkonsiz bo‘lgan teng sathi ham bor bo‘lishi mumkin. Ikkinci tomondan qaralsa, muallaq, ya’ni aniq namoyon bo‘lmaydigan etnik identiklik butkul yo‘q bo‘lib ketishi (hech bo‘lmaganda anglashilmaydigan darajada) mumkin. Shaxsiy xotirjamlikni saqlash strategiyasi sifatida u etnik omilning o‘zlikdagi hayotida, keng hamjamiyat oldida ahamiyatsizligini inkor etishda namoyon bo‘ladi.

Inson identikligi qandayligiga qarab, uning xatti-harakatlarini qabul qiladigan yoki inkor etadigan qadriyat va normalar, qiziqish va tamoyillari, stereotipler va amal qiladigan yo‘riqlarini prognozlash mumkin. Ijtimoiy identiklik o‘zida ijtimoiy guruhga mansubligini anglashga qaratilar ekan, unda mazkur guruhda ahamiyatli bo‘lgan qadriyat va

yo‘riqnomalar, shakllantirilgan stereotiplarning jamiyat uchun qabul qilingan mavjud me’yorlari yashovchanligi oshadi. Taxmin qilish mumkinki, individ uchun har bir holatda identiklik turlari turli darajada dolzarb bo‘ladi. Ya’ni ayni shu holatda biron bir alohida identiklik yuzaga chiqadi va asosiy, «etakchi» (dominant) bo‘ladi. Demak, shu paytda individ o‘z mansubligini anglash barobarida, me’yor, qadriyatlar va boshqalarning butun bir tizimiga o‘zining bog‘liq bo‘lishligini ta’minlaydi. Batafsil fikr bildiriladigan bo‘linsa, aytish mumkinki, qadriyatlar ierarxiyasi doimiy emas, u muayyan paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi va identiklik talablariga bog‘liq ravishda amalga oshirilayotgan xatti-harakat modellarini qayta tizimlashtiradi. Shu nuqtai nazardan muammoga nazar tashlansa, har qanday dolzarb ijtimoiy identiklik xatti-harakat va ichki mohiyatni baholashda qarorlar orqali ifodalanadi.

Individ o‘ziga u yoki bu ijtimoiy makonni tanlar ekan, shu bilan o‘zi uchun aniq identiklikni ham tanlaydi. Biroq noturg‘un hayot kishilarning sotsiumdagi o‘rnini o‘zgaruvchan, ya’ni – bugun turmushning sotsial pillapoyalarida biror narsa ahamiyatlil bo‘lsa, ertasiga esa boshqa holat «ommabop, nufuzli, dolzarb» bo‘lishi tufayli individning ayni damdagi jamiyatda egallagan o‘rnini hamma vaqt ham nufuzli va foydali bo‘lishiga kafolat berolmaydi. Tabiiyki, individ barqaror mansublikni istaydi, chunki o‘zgaruvchan shart-sharoitlar uning ijtimoiy-ruhiy barqarorligini izdan chiqarib yuborishi mumkin. Shundan kelib chiqib unda ba’zan etnik mansublik ustuvorlik qilsa, ba’zida diniy identiklikka ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Etnik guruhga mansublik bilan bog‘liq tashvishlardan holi bo‘lish uchun individ qaysi kategoriyalardan foydalanadi? Ijtimoiy identiklikni shakllantirishda u fuqarolik identikligiga suyanishi mumkinmi? O‘zini yanada kengroq ma’noda, ya’ni milliylikdan yuqori turgan birliklar, masalan – yevropalik, osiyolik, dunyo fuqaroligi (kosmopolitizm)ga mansub deb bilishi, ya’ni «kosmopolit identiklik»ni da’vo qilishi mumkinmi? O‘zbekistonlik tadqiqotchi N.Mustafaeva o‘z ilmiy izlanishlarida shunday yozadi: «Kosmopolitizmning g‘oyaviy tazyiqi tarix faniga ham kirib keldi. 1949 yil aprelda O‘zSSR Fanlar akademiyasi ijtimoiy fanlar bo‘limining kengashida «O‘zbekiston xalqlari tarixini va o‘tmish madaniyatini soxtalashtirishga qarshi» bir qator ma’ruzalar tinglandi. Ulardan birida A.Navoiy ijodini o‘rgangan Bertels «qattiq tanqid» ostiga olingan

edi. Muallif panislomizm, panturkizm va paneronizmni «bevatan kosmopolitizmning bir ko‘rinishi» deb atagan va ular «SSSR xalqlarining ijodiy qobiliyatlarini kamsitish, ularning milliy iftixoriga rahna solish orqali kommunizm g‘oyalarining chet el xalqlariga ta’sirini zaiflashadirishga qaratilgan reaksiyon ta’limot» sifatida baholagan».¹² Biroq, ijtimoiy identiklik tarkibidan uning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lmish etnik identiklikni chiqarib tashlash, bir tomondan, yaxlit holatdagi «MEN» obrazini yo‘qotish, boshqa tomondan, qanday bo‘lmasin, biron bir madaniyat bilan aloqani yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Etnik identiklikni yo‘qotish inson umumiyligi uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu hol, masalan, qora tanlilarining «men hech kim emasman» tuyg‘usida uzoq vaqt namoyon bo‘lgan jihatlari bilan ham ohang kelgan davrlarni eslatadi. Tadqiqotchilar buni “o‘zlikdan kechish” deb ham izohlaydilar. Etnik marginallik uning bir ko‘rinishidir.

Shunday qilib, etniklikni tushunish, amal qilish, rivojlanish muammosi bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston uchun, balki butun dunyoda eng dolzarb masalaga aylangan. Xalqning mental dunyosidagi noyob jihatlardan biri bag‘rikenglik va tolerantlik hisoblanadi. Dunyo hamjamiatining hozirgi bosqichida 1995 yil 16 noyabrda Parij shahrida YuNESKO Bosh Konferensiyasining yigirma birinchi sessiyasida qabul qilingan Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unda shunday deyilgan: «XXI asr bo‘sag‘asida O‘zbekistonning qiyofasini tinchlik va osoyishtalik, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlik, diniy hamda mafkuraviy bag‘rikenglik, madaniyatlarning uyg‘unlashuvi, turli millat va elatlarning jamiyat hayotida tenglik asosida ishtirok etishi belgilaydi».¹³ Bag‘rikenglik o‘z mohiyat-e’tibori bilan «boshqalar» va «o‘zgacha» qadriyatlar haqidagi bilimlarni ifodalaydigan, baholar va unga asoslangan amaliy faoliyat tizimini qamrab oladigan ijtimoiy-madaniy hodisa sanaladi. Jamiyat rivoji manfaatlar, qadriyatlar va xulq normalari umumiyligiga asoslanadigan, o‘zaro aloqalarning darajasi, kuchi, xarakteriga ko‘ra farqlanadigan kishilarning nisbatan barqaror birliklari ijtimoiy guruahlarning shakllanishiga olib keladi. Xususan, bugungi kun ilmiy adabiyotlarida turli sotsial qatlamlar, etnik birliklarni tavsiflaydigan o‘rta, oila, brigada, o‘quv guruuhlarini qamrab oladigan kichik ijtimoiy guruuhlar farqlanadi.

Jamiyatning yuqoridagi kabi guruhlarga bo‘linishi uzoq davom etgan ijtimoiy jarayonlarning hosilasidir. Insoniyatning etnomadaniy rivojlanishi esa qabila, elat va millat kabi birliklarning yuzaga kelishiga va jamiyat etnik tuzilishining murakkablashishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, keng ma’noda ijtimoiy bag‘rikenglik mazkur guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning xarakterini, uning ijobiy mazmunga egaligini anglatadi. Tolerantlik hodisasining etnomadaniy muhitda amal qilishida muayyan yerlik xalqlarning urf-odatlari, an’ana va marosimlarining roli kattadir. Shuningdek, tolerantlik hodisasining ijtimoiy-siyosiy muhitdagi o‘rnini belgilaganda milliy ongni mustahkamlashda milliy axloqiy fazilatlardan samarali foydalana bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning e’tirof etishlariga ko‘ra, bugunga kelib yer yuzida 1600 dan ortiq millat va elatlarning vakillari istiqomat qiladilar.¹⁴ Geografik xaritaga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda bor-yo‘g‘i 250 ta atrofidagina davlatlarning ro‘yxati keltirilganligini ko‘rish mumkin. Agarda, ulardagи diniy e’tiqod holatini kuzatadigan bo‘lsak, raqamlar yanada qisqaradi, balkim u bor-yo‘g‘i bir nechta o‘ntani yo tashkil qiladi yoki yo‘q. Jinslar orasidagi tafovutni kuzatadigan bo‘lsak, mavjud sanoq tizimi ikkiga kelib to‘xtaladi xolos, ya’ni erkak va ayol. Ichki va tashqi, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatimizda barcha omillarni chuqur tafakkurga asoslanib tahlil etiladigan bo‘linsa, murakkab sinovlardan ilgarilab o‘tilishi uchun identiklikning muhim omili bo‘lgan mental xususiyatlar va uni belgilab beruvchi sotsial darajalarga alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytiladigan bo‘linsa, milliy identiklik tizimi demokratik tafakkur salohiyatining namoyon bo‘lishida ilgari suriladigan maqsad va vazifalarga bog‘liq bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. *Identiklik sotsiologiyasining turlari, tamoyillari, qonuniyatlarini baholab bering?*
 2. *Fundamental va amaliy tadqiqotlar doirasida identiklik va madaniyatning o‘rganilishi nimalarda o‘z aksini topadi?*
 3. *Identiklik va madaniyat sotsiologiyasining horijiy tajribada o‘rganilishini asoslang?*
 4. *Madaniyat fanlari tiziminining shakllanishini ta’riflang?*
-

5. Madaniyat sotsiologiyasi, madaniy antropologiya va sotsiologiyaning o‘zaro bog‘liqligi nimada?
6. Madaniyat sotsiologiyasining vazifasi nimalardan iborat?
7. Inson “madaniy mavjudot sifatida” degan tushunchani izohlang?

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.
2. The Meanings of Social Life: A Cultural Sociology Oxford University Press Jeffrey C. Alexander 2003
3. Cultural Sociology An Introduction Les Back, Andy Bennett, Laura Desfor Edles 2012
4. Tony Bennett, Mike Savage, Elizabeth Silva, Alan Warde, Modesto Gayo-Cal and David Wright. Culture, Class, Distinction/ Published in the USA and Canada by Routledge. - New York, London, 2008.
5. The Blackwell companion to the sociology of culture / edited by Mark D. Jacobs and Nancy Weiss Hanrahan. - UK Copyright, Designs, and Patents Act, 2005.

2- MAVZU: Zamonaviy akademik sotsiologiya ilmiy maktablarining shakllanishi va rivojlanishining sotsial qonuniyatlarga o‘tish jarayonlarini kuzatish

REJA:

1. Zamonaviy sotsiologiya fanidagi ustuvor masalalar
2. Ijtimoiy hayot sotsial ob’ekt sifatida
3. Sotsial-siyosiy nazariy ta’limotlar

Tayanch iboralar: ijtimoiy hayot, ijtimoiy guruh, insoniy o‘zaro aloqalar, individ, ijtimoiylashuv, ijtimoiy moslashuv

2.1. Zamonaviy sotsiologiya fanidagi ustuvor masalalar

Ijtimoiy jamiyat sotsiologiya fanining jamiyat sifatida uning manbai bo‘lishi mumkin. Ammo jamiyat boshqa ijtimoiy va gumanitar fanlarning ham manbai hisoblanadi. Shu sababli sotsiologiyaning ilmiy statusi, boshqa fanlardek manbai borlik va predmetning turli xilligi vabir-biridan farq qilishidan iboratdir.

Sotsiologiya fanining o‘ziga xos bilish nazariyasining asosiy bo‘lgan borliq va undan sifat ko‘rsatkichlariga olib keladigan hodisa va jarayonlar o‘ziga xos bu predmetni tashkil etib, ular qo‘yidagilardan iborat, ya’ni bir guruh sotsiologiyalar fikricha:

Ya’ni, «Gruppali o‘zaro aloqalar», «insoniy o‘zaro aloqalar» va «ularning natijalari», «insoniy sotsial munosabatlari», «sotsial institutlar», «sotsial tashkilotlar va ularning inson

xarakteriga muvofiq munosbatlari», «sotsial harakatlar sistemasi», «kishilik jamiyatni va insoniy xarakter», «sotsial intizom va intizomsizlik tabiatni», «sotsial gruppalar», «insoniy munosabatlar va aloqalarning forma-shakllari», «insoniy hayotning zarurligi va uning sotsial konteksti», «qishloq jamiyatining asosiy strukturasi», «sotsial jarayonlar», «ijtimoiy madaniy holatlar», «sotsial hayotni ilmiy o‘rganish» va hokazolar sotsiologianing predmeti bo‘la oladi, - deb hisoblaydilar bir guruh sotsiolog olimlar.

Sotsiologiya kursining predmeti boshqa fanlar predmetiga o‘xshash fanning asosiy vazifasi, maqsadi va funksiyasi, qonun va kategoriylarini belgilab berish bilan bu fan nimani o‘rganadi va nimani o‘rgatadi kabi yo‘nalishlarini ham aniqlab beradi.¹⁵

Bu fanning predmetini aniqlashda sotsial- ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu hodisa va jarayonlardagi sifat ko‘rsatgichlarga e’tibor beriladi, jamiyatning sotsial vajtimoiy munosabatlarini vujudga keltiradigan holatlarni, uni aniqlaydigan shakl va forma, mazmunlarinio‘z ichiga oladigan jarayonlar asosiyrol o‘ynaydi. Ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. «O‘zaro insoniy aloqalar», «o‘zaro guruh aloqalari va munosabatlari», «uning natijalari», «insoniy sotsial munosabatlar», «sotsial institutlar», «sotsial tashkilotlar va ularning insoniy xarakterga munosabatlari», «sotsial harakatlar sistemasi», insoniy jamiyat va inson xarakteri (qiyofasi)», «ijtimoiy tartib va tartbsizlik tabiatni», «sotsial guruhlar», «qishloq jamiyati formalari», «insoniy mavjudot va uning konteksti», «qishloq jamiyatining asosiy strukturasi», «sotsial jarayonlar», «ijtimoiy madaniy holatlar», «sotsial hayotni ilmiy o‘rganish» va hokazolar birinchi guruh fikrlaridir.

2. Ikkinchi guruh fikrlariga qo‘yidagilar kiradi (ya’ni ikkinchi guruh olimlari fikri):

Xalqaro sotsial-ijtimoiy ensiklopedik olimlar fikricha bu fan predmeti shundan iboratkim, ya’ni bu fan – «sotsial ijtimoiy-siyosiy agregatlar, guruhlar va ularning institutsional (ya’ni ijtimoiy-siyosiy faoliyatlar ko‘rinishi), tashkilotlar, uyushmalar, institutlar va ularning faoliyatlarini va bu institutlar va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar sistemasi va faoliyatlarini jarayonidagi tub o‘zgarishlar»ni o‘rganadi deb ko‘rsatiladi.

3. Uchinchi guruh olimlar fikricha, ya’ni sotsial guruhlar ularning vakillari asosida tashkil topgan birlikda faoliyat ko‘rsatiladigan kishilar hayotida yuz beradigan butun voqealar, hodisalar, tashkilotlarning rivojlanishi jarayonlarini» o‘rganish, - deb hisoblaydilar.

Yana bir qancha ana shunday fikrlarni keltirish mumkin. Ammo, hali uning konkret predmeti aniq emas. Bu fikrlarning qanaqa bo‘lishidan qat’iy nazar bu fan iqtisodiy- siyosiy hayotda kishilar ijtimoiy-siyosiy faoliyatining hamma jahbalarini – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g‘oyaviy, madaniy va boshqa tomonlarini qamrab oladi va ularga taaluqli ijtimoiy-siyosiy protsesslarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganadi.

Shunday qilib, bu fan – ma’lum tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, faollashgan ijtimoiy-siyosiy sistemalarning umumiyligi va spesifik xarakterini, mazmunini, ularning sotsial siyosiy qonun va qonuniyatlarining vujudga kelishi, taraqqiyoti va faolligini o‘rganadigan

fandir.¹⁶ Bu fan jamiyatning sotsial-siyosiy taraqqiyoti, rejali rivojlanishi, sotsial-siyosati, sotsial munosabatlari, sotsial-siyosiy sistemasining mohiyatini, uning iqtisodi, siyosati, ijtimoyiyati va mafkuraviy-ma'naviy, madaniy qiyofasi va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Shu bilan bu fan:

1. Jamiyatdagi turli guruhlar, individlar va ularga xos ijtimoiy-siyosiy hayotning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini;
2. Shunga muvofiq hozirgi davrga muvofiqlashgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy) va ularga muvofiq har bir individning o'zaro holatlarini (o'rni, huquqi, ahvoli, bog'liqligi, erkin, tenglik, ozodlik, adolatlilik, demokratik holati va h.k.);
3. Turli individ va guruhlar (ko'proq millat, sinflar, sotsial qatlam va h.k.) bir-biriga jamiyatd tutgan o'rniga, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqeя va hodisalar asosida bo'lgan munosabatlarni;
4. Va oqibat natijada turli xil individlar, guruhlarning ijtimoiy-siyosiy jamiyatdagi o'zaro faoliyati va uning natijalarini o'rganadigan fandir.

Bu ijtimoiy-siyosiy munosabatlar majmuasi fan sifatida sotsial-demokratik ob'ektivlik metodi, uslubi asosida nazariy-ilmiy va amaliy natiajalarni analiz qilish orqali o'rganiladi.

Shu asosda bu fanning o'ziga xos spesifik xususiyatga ega bo'lgan funksiyalari vazifalari vujudga keladi.

1.2. Ijtimoiy hayot sotsial ob'ekt sifatida

Sotsiologiya fani fan sifatida ijtimoiy hayot jarayonlarini o'rganar ekan, qo'yidagi funksiyalarga tayanadi:

Birinchidan – ilmiy problemalarni hal etib, ijtimoiy va siyosiy hayotning hamma jarayonlariga taaluqli haqiqiy borlikni ilmiy analiz qilish, yozma manbalarni o'rganish, solishtirish, tekshirish oqibatida sotsial taraqqiyoti, uning ob'ektlarini, institutlarini o'rganadi va bu o'rganishning sotsiologik metodologiyasini, ilmiy tekshirish metodlarini aniqlaydi. Unda ikkita funksiya – nima o'rganiladi (ob'ekt), qanday o'rganiladi (metodi) va shu asosda gnoseologik vazifa-funksiyasi kelib chiqadi. Natijada sotsiologik-siyosiy nazariy fundamental funksiyasi shakllanadi.

Ikkinchidan – bu fan vazifasi ijtimoiy-siyosiy haqiqatning qayta tashkil topishi, vujudga kelishiga bog'lik bo'lgan muammolarni o'rganadi va shu asosda rejali, maqsadga muvofiq rivojlanadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning asosiy yo'nalishi va vositalarini o'rganish funksiyasi paydo bo'ladi va oqibat natijada nazariy va amaliylit sotsiologiyasining ob'ekti va metodini aniqlash funksiyasi uni ilmiy yoki amaliy aniqlash vazifasi – funksiyasi vujudga keladi. Bu esa bevosita «fundamental» yoki «nazariy» (ikkalasi bir mazmunda, ammo fundamental kengroq ma'no kashf etadi) va amaliy funksiyalari shakllanadi. Bu ikkala funksiya bir-biriga bog'liq bo'lib ular ilmiy va amaliy

vazifalarini bajaradi. Nazariy-abstrakt asoslarda, amaliy-bu ham nazariy va empirik kuzatishlarga asoslanib olgan bilimning ob'ekt darajasiga amaliy va nazariy yo'l bilan bog'lanadi.

Uchinchidan – prognoztik – kelajakka doir mulohazalar bildirish funksiyasi mavjud. Yana bu fanning bilish funksiyasi mavjuddir.

Bu funksiya birinchidan informatsion xususiyatga ega bo'lib, umumjamiyat, jamoa va individlar haqida dastlabki ma'lumotlar – ya'ni ularning ehtiyoji, manfaatlari, orientatsiyalari qiymati haqida, motivlar, real faktlar, xarakter va mohiyatga taaluqli faktlar, ijtimoiy fikrlar va boshqa ma'lumotlar to'planib, haqiqiy sotsial-siyosiy fikrlar, xulosalar chiqariladi.

Ikkinchidan – sotsial-siyosiy nazariyalarni boyitadigan yangi g'oyaviy va nazariy ta'limotlar yangi qonuniyatlarni va tendensiyalarni vujudga keltiradi.

To'rtinchidan – amaliy funksiyalar bo'lib, bu bilish funksiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bu funksiya nazariy ta'limot bilan amaliyot birligi bu fanning eng muhim belgisidir. Har bir nazariy ta'limot amaliyotsiz – ta'limot emasdir. Bu funksiya asosan aniq, konkret nazariy ilmiy xulosalarga asoslanib, ko'proq jamiyat taraqqiyotining kelajagi haqida va uni rejali rivojlantirish iktiqbollarini belgilab beradi, sotsial-siyosiy jamiyatning kelajagini bashorat qiladi.

Buning uchun bu funksiya o'zining mohiyatiga qarab 2 ta sotsial faktorga – ob'ektivlik, sub'ektivlik xarakteriga egadir.

1. Ob'ektivlik funksiyasiga – inson hayoti va inson faoliyati va uning hamma shart-sharoitlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan jamiyatning strukturasi, siyosiy tuzumi, konkret mehnati sharoitlari, mehnat, turmush munosabatlari kiradi va ularning kelajak taraqqiyotini belgilab beradi;

2. Sub'ektivlik – bu funksiyaga asosan sub'ektivlik aspektlari kiradi, unda turli motivlar, o'y-fikrlar, ko'rsatmalar (qaror, farmoyish, manfaatlar, qimmatli ta'limotlar, g'oyaviy tushunchalar, ijtimoiy, jamoatchilik tushunchalari va h.k. yoki kishilar, guruhlar va shunga o'xshash o'zaro munosabatlari kiradi.

Beshinchidan – g'oyaviy, mafkuraviy funksiyalar bo'lib, bu funksiya fikrlash, tafakkur, ong va amaliy funksiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu funksiyalar asosan:

- birinchidan –tabiiy-tarixiy jarayonlarni bilish orqali jamiyatni yaqin va uzoq kelajakdagi istiqbolli taraqqiyoti to'g'risidagi g'oyaviy ta'limotni ishlab chiqishdan;

- ikkinchidan – boshqa konsepsiylar, ta'limot va qarashlar bilan ilmiy, g'oyaviy munozaralar orqali xulosalar chiqarish;

- uchinchidan – aholi o'rtasida ilmiy ideologiyani-g'oyani keng tarqatishdan;

- to'rtinchidan – malakali, layoqatli mafkuraviy ilmiy g'oyalar asosida bilimli mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Bu esa bevosita siyosiy motivlardan mustaqil bo'lishi shart.

- oltinchidan – siyosiy baho – siyosiy funksiyasidir. Hamma ijtimoiy funksiyalar

bevosita jamiyatning siyosiy munosabatlarini o‘z ichiga olmay, ular bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lmay jamiyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga ta’sir etishi mumkin emas va shu asosda hamma ijtimoiy taraqqiyot siyosiy pozitsiyalarisiz tushunish mumkin emas. Shu sababli bu fanning bu funksiyasi bevosita jamiyatning siyosiy manfaatlarini o‘z ichiga oladi, ilmiy xulosalar, manfaatlar va hamma jarayonlar jamiyatning har bir guruhi, jamoatchiligi, individlarining siyosiy manfaatini o‘z ichiga oladi.Unda mafkuraviy va siyosiy manfaatlari bevosita ijtimoiy-siyosiy tizim manfaatlariga muvofiqlashadi va uni o‘z ichiga oladi.

1.3. Sotsial-siyosiy nazariy ta’limotlar

Jamiyat faoliyati shakllanishi jarayonida uzluksiz va ko‘p qirrali sotsial-siyosiy aloqalar, hodisa, jarayonlar vujudga keladi. Ularga yuzaki shunday qarasangiz ko‘plari alohida vaqtinchalik, epizodik va tasodifiy holatlar deb his qilishingiz mumkin. Ammo, bular qaysi ijtimoiy jamiyatga taluqli bo‘lmasin ijtimoiy jamiyatning u yoki bu qonun va qonuniyatlariga, ularning kategoriyalariga taaluqlidir.

Qonun deganda umumjamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan va zaruriyat va ma’lum bir sharoitda doimo takrorlanib turadigan ijtimoiy jamiyatning eng muhim aloqalari va ijtimoiy-siyosiy munosabatlari tushuniladi:

- a) ijtimoiy sotsial-siyosiy qonuniyat bu sotsial-siyosiy hodisalar va jarayonlarning zaruriy aloqalari eng avvalo kishilarning faoliyati va harakatlarining muqarrarligi tushuniladi;
- b) sotsial-siyosiy qonunlar – bu turli xil individlar, jamoa birliklari jamoatchilik faoliyatlarining zaruriy munosabatlarini aniqlab beradi.

Ular asosan:

- xalqlar o‘rtasidagi, millatlar, sinflar, toifalar, sotsial-demografik va sotsial-professional guruuhlar o‘rtasidagi;
- shahar bilan qishloq o‘rtasidagi;
- jamiyat bilan sotsial tashkilotlar, jamiyat bilan mehnat kishilari o‘rtasidagi;
- jamiyat bilan oila o‘rtasidagi;
- jamiyat bilan shaxs o‘rtasidagi, inson o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.¹⁷

Bu sotsial-siyosiy qonuniyatları orqali kishilar o‘zlariga hayotiy sharoit yaratadi. Turmush normalarini vujudga keltiradi va o‘ziga qonuniy spesifik xususiyatlarni yaratadi.

Sotsial-siyosiy qonuniyatlar tabiat qonunlaridek, tabiiyki voqealar yo‘nalishi jarayonida shakllana boradi. Ular esa sotsial guruh, jamoalarning maqsadga muvofiq faoliyatları va sodir bo‘layotgan voqealari natijasida yuzaga keladi.

Demak, sotsial-siyosiy qonuniyatlarni ilmiy jihatdan izlash, o‘rganish jamiyatdagi turli sotsial elementlarning o‘zaro aloqalarini ilmiy tahlil etib o‘rganishdan iboratdir. Bu esa jamiyatdagi u yoki bu hodisa va voqealarni sotsial-siyosiy munosabatlarning genezisini ob’ektiv o‘rganishdan va to‘g‘ri xulosa chiqarishdan, jamiyat taraqqiyotini dialektik

tushuntirishdan iboratdir.

Qonunlar o‘z harakati vaqtiga qarab bir-biridan farq qiladi.

- umumiy qonuniyatlar hamma ijtimoiy sistemalarda harakatda bo‘ladi (M: qiymat qonuni, pul-tovar munosabatlari va h.k.).

Maxsus, spesifik qonunlar bir yoki bir nechta ijtimoiy sistemalarda harakatda bo‘ladi (M: bir ijtimoiy jamiyatdan ikkinchisiga o‘tish qonuni yoki dastlabki kapital jamg‘arish qonuni) va h.k.

Sotsial qonunlar umumiylit yoki birlik darajasiga qarab bir-biridan farq qiladi. Shunday qonunlar borki, ular faqat sotsial sohalarga taaluqlidir, shu bilan ayrim qonunlar borki, u faqat sotsial sohaning ayrim elementlari rivojlanishga taaluqlidir. Masalan, sinflar, millatlar, guruhlar va h.k.

Shunday qonunlar borki, ularning o‘z uslubi va namoyon bo‘lishga qarab ajratish mumkin. M: Dinamik rivojlanish yoki statistik rivojlanishdir. Dinamik rivojlanish qonunlar, ular sotsial-siyosiy holatlarning asosiy yo‘nalishi, faktorlari, sotsial o‘zgarishlarning formalari (M: qayta qurish, o‘tish davri), voqealarning bir va bir nechta qayta va keskin, qattiq ko‘rinish holatlari (to‘ntarish) ifodalanadi. (Chunki bunday voqealar bo‘lishi tobora muqarrar bo‘lib qoladi).¹⁸

Statistik qonunlar dinamik qonunlardan farqi shuki, bu qonunda sotsial-siyosiy o‘zgarishi va yo‘nalishini, tendensiyalarini hisobga olib, umuman jamiyatda sotsial stabillikka e’tibor beriladi (masalan, davlat to‘ntarishi jarayonida joylardagi voqealar tinch yoki notinch o‘tish qonuniyatlaridir).

Yoki dinamik qonunlar sotsial-siyosiy o‘zgarish jarayonida hamma individga, nafaqat sinf, toifa, tabaqa, jamiyat, hammasiga jiddiy e’tibor beriladi. Statistik – stoxastik qonunlar faqat jamiyat va sinfnинг kayfiyati tendensiyasiga e’tibor beradi va o‘sha umumiy belgi va mohiyatga e’tibor beriladi. (To‘ntarish jarayonida xunta – faqat xalqning mamlakatdagi hozirgi noroziligiga qarab xulosa chiqarish va h.k.)

Dinamik qonunlar asosan ikkiga:

- sababli dinamik;
- funksional qonunlarga bo‘linadi

Sababli dinamik qonunlar asosan sotsial jarayonlarni chuqur va qat’iy determinlik aloqalariga jiddiy e’tibor berib chuqur o‘rganiladi. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning biridan ikkinchisiga o‘tishda ishlab chiqarish usulining roli va h.k.masalalardir.

Funksional dinamik qonunlar esa empirik (paydo bo‘lishidan) kuzatishlar va qat’iy o‘zaro sotsial holatlarning takrorlanishini o‘z ichiga oladi.

Statistik – stoxastik qonunlar asosan rivojlanish qonunlari (masalan, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini tobora qondirish, sotsial o‘z-o‘zini boshqarish qonunları) va funksional qonunlar (masalan, mehnat kollektivlarining formal va noformal strukturalar, oilada rollarni taqsimlash funksiyalari – ota-on, bola va h.k.) ichiga olib harakatda o‘z

xilma-xilligini namoyon etadi.

Sotsial-siyosiy qonunlarning o‘ziga xos qo‘yidagi kategoriyalar mavjuddir:

Birinchi – sotsial qonunlarning sotsial-siyosiy va shunga muvofiq holatlarning o‘zgarmasligini ifoda etilishi kategoriyasidir. Masalan, A holat mavjud bo‘lsa, albatta B holat bo‘lishi zarur, ya’ni totalitar, byurokratik boshqarish sistemasining unga oppozitsiyada bo‘lgan demokratik boshqarish tarafдорлари va h.k.lardir.

Ikkinchi – bu qonunning taraqqiyoti tendensiyalarini ifoda etish kategoriyasidir. Bu jarayonda sotsial ob’ekt strukturasini ifoda etish, o‘zaro munosabatlarning biridan ikkinchisiga o‘tishini namoyon etadi va bu holat oxirgisi tendensiyalarini ifoda etadi. Masalan, har bir o‘tish jarayonida ishchilar sinfi yoki siyosiy kuchlar asosiy kuch bo‘lib o‘z xarakterini saqlab qolaveradi.

Uchinchidan – bu qonunda funksional bog‘liqlikni o‘rnatalishiga va saqlanib qolishligiga asoslanib, sotsial xarakterni o‘zgartiradi. Ya’ni funksional bog‘lik kategoriyasi bo‘lib, unda avvalgi sotsial sistema saqlanib qoladi va sotsial holatlar o‘zgarishlarida bir qator funksiyalar saqlanib qoladi yoki sotsial ob’ektlarning sifat jihatidan biridan ikkinchisiga o‘tish bu funksional bog‘liqlik kategoriyasi bo‘lib katta rol o‘ynaydi. Masalan, bu o‘tish jarayonida, sotsial-siyosiy jarayonda kishilarning siyosatda, boshqarishda, tarbiyada aktiv ishtirok etish va sinfiy-tarbiyaviy ishlarning yuksak sifatliligi va ahloqiy psixologik klimatni, ya’ni ruhiy holatni yaxshilashda ishtirok etishni ko‘rsatuvchi funksional bog‘liqlik kategoriyasidir.

To‘rtinchidan – sotsial holatlararo aloqalar sababiyatini hisobga oluvchi qonun kategoriyalaridir. Funksional aloqa kategoriyasi sababiyat kategoriyasiga ta’sir etishi va etmasligi ham mumkin. Yangi ijtimoiy manfaat bilan shaxsiy manfaatlar bog‘liqligidir.

Beshinchidan – sotsial-siyosiy holatlar o‘rtasida ehtimollik aloqalari mavjudligi, o‘rnatalishi qonuni kategoriyasidir. Masalan, qishloq yoshlari o‘rtasida shaharlarga ko‘plab ketish, huquqiy tartibotning buzila borishi ehtimollari, «yashirin iqtisodning» yuksalib borishi ehtimolligi, ayollarning iqtisodiy mustaqilligining o‘sishi, ajralishning ko‘payishi ehtimollik kategoriyasidir.

Shunday qilib, sotsiologiya qursi umuman sotsial-siyosiy qonuniyatlar, ularning nafaqat qonunlarini umumiyl formada amalga oshiradi, balki uni aniq shaklda – insoniyatning faoliyatini amalga oshiradi va uni o‘rganadi. Chunki, har bir konkret inson jamiyatda o‘z faoliyatini konkret sharoitlarda amalga oshiradi, o‘zining ma’lum sotsial-siyosiy holatini (statusini) aniqlaydi; o‘z faoliyati jarayonida aniq belgilangan sotsial-siyosiy rolni egallaydi va ma’lum funksiya bajaradi; shu bilan ma’lum individual xususiyatga (jinsi, yoshi, millati, oilaviy va h.k.) ega bo‘ladi; ma’lum munosabatga (ko‘rsatma berish) o‘z faoliyatiga ega bo‘lib (masalan, spesifik informatsion manfaatga va h.k.) o‘z statusi, roli va xususiy xarakteriga ega bo‘ladi, turli yosh va malaka, ma’muriy mutaxassislikka ega bo‘lib, jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi.

Nazorat savollari

1. Zamonaviy sotsiologiya fanidagi ustuvor masalalarini izohlang?
2. Ijtimoiy hayot sotsial ob'ekt sifatida qanday nomayon bo'ladi ?
3. Sotsial-siyosiy nazariy ta'limotlarni sotsiologiya fanidagi ahamiyati qanday?
4. Sotsiologiyaning amaliy funksiyalarini sanab o'ting?

Adabiyotlar :

1. Richard T.Shaffer. Sosiology in modules.New York. 2013
2. Margaret Andersen., Hovard F.Taylor. Sosiology. New York. 2013
3. Diana Kendall, Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. Cengage Learning 2016. USA.
4. Joan Ferrante Sociology: A Global Perspective, Ninth Edition. Cengage Learning 2015. USA.
5. Frolov S.S. Общая синтаксисология. //Учебник.Москва.: «Проспект».2012
6. Тошкенко J.T. Синтаксисология. //Учебник.Москва.: «ЮНИТИ». 2012

Internet resurslari

1. www.lib.socio.msu.ru
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>

3-MAVZU: Multikulturalizm va marginallik

Reja:

1. Korporativ madaniyat tushunchasi
2. Multikulturalizm va marginallik va mehnat unumidorligi
3. Multikulturalizm va marginallik ko‘rinishlari

Tayanch iboralar: korporativ madaniyat, mehnat unumlorligi, mehnat qadriyatları, mehnat jamoasi me'yorlari, jamoaviy ruh

3.1. “Korporativ madaniyat” atamasi XIX asrda nemis feldmarshali Moltke tamonidan ofitserlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tavsiflash uchun ishlatgan. Vaqt o‘tishi bilan bu tushuncha boshqa soxalarga xam tarqalgan. Buguni kunda korporativ madaniyat xar qanday tashkilotni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. U mehnat jamoasini birgalikda faoliyat ko‘rsatishi uchun ko‘maklashadi. Aynan korporativ madaniyat, mehnat jamoasini a’zolariga muassasa to‘g‘risida tassavurlani boyitishga, mehnatkashlikga undashga, ma’sulyatni oshirishga va daxldorlik xissini oshirishga xizmat qiladi.¹⁹

Korporativ madaniyat – yaratish, rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash va boshqarish zarur bo‘lgan muayyan muhitdir.²⁰ Sotsiologiyada korporativ madaniyatni o‘rganish E.Meyo tomonidan yo‘lga qo‘yilgan. U mehnat faoliyatiga ijtimoiy-psixologik omillarni ta’sirini aniqlab industrial sotsiologiyaga asos solgan. Keyinchalik turli xil sotsiologik maktablarda bu atamaga turlicha sharx berilgan. Hozirgi kunda korporativ madaniyatga muayyan tarif mavjud emas.

Shuningdek korporativ madaniyat bilan bir qatorda tashkiliy madaniyat tushunchasi ishlatiladi. O. G. Tixomirovaning shunga oid monografiyasida “korporativ madaniyat tushunchasi ostida biror bir korporatsiya ishini tashkil qilishda ko‘maklashadigan qadriyatlar, me’yorlar, qoidalarning mehnat jamoasi tamonidan amal qilinishi tushuniladi.

G‘arb sotsiologiyasida korporativ madaniyatni ta’riflash uchun yigirmadan ortiq ta’riflar mavjud. Ularni umumiy ma’nodagi birlashtib turadigan ahamiyati shundaki, ularning barchasini o‘zagini qadriyatlar va xulq-atvor normalaridir. Qadriyatlar va madaniyatning boshqa elementlari isbot joylarida jamoaviy ruhni shakllatiri isbot qilmaydigan faktidir.

¹⁹ Капитонов Э. А. Корпоративная культура: стратегические направления развития социально-трудовых отношений // Социс.–2010.– № 9.– С. 48–56. бетлар

²⁰ Баренбойм П. Глобализация в сфере корпоративного управления: возможные негативные последствия: Сборник статей «Актуальные проблемы корпоративного управления».– М.: Юридический дом «Юстицинформ», 2010.

Korporativ madaniyat – tashkilotning mavjudligi mazmuni va uni xodimlarga va mijozlarga munosabatini aniqlashtiruvchi falsafadir; kompaniyani ichki muxitidagi ahloqiy va ijtimoiy holat va uning tashqi olam bilan aloqadorligi; tashkilotning maqsadlarini shakllantiruvchi va unga erishish yo‘nalishlarini belgilovchi; tashkilotdagi shaxslarning o‘zaro aloqalar tizimi kabi tushunchalar majmuasidir.

Hozirgi kunda korporativ madaniyatni tarkibiy qismlarini quydagicha nomlash mumkin:

²¹

1) Xulq-atvor standartlari va qadriyatlar tizimi

Ta’kidlash lozimki tashkilotning qadriyatları tashlilotdagi xulq-atvor va me’yorlarga asoslangan mavjud tashkiliy madaniyatning yadrosini tashkil etadi. Bunday qadriyatlar tashlilotdagi eng xurmatli odamlar tamonidan shakllantiriladi va bu o‘z navbatida tashkilotning barcha xodimlarini qarashlari va xarakatlarini uyg‘unligini ta’minlashga xarakat qiladi. Shunday qilib, bu maqsadga erishishning muxim kafolati hisoblanadi.

Hozirgi kunda korporativ qadriyatlarini ro‘yxatini umumlashtirish murakkab hisobanadi. Chunki xarbir tashkilot o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan muxit va faoliyat turidan kelib chiqib qadriyatlarini shakkllantiradi. Barcha tashkilotlarga xos ahloqiy qadriyatlargaadolatlilik, ezgu ish, sahovatli bo‘lishligini qo‘shish mumkin. Kompaniyadagi asosiy o‘rinda turuvchi qadriyatlar timsollar, shiorlar yoki turli tadbirlar orqali xodimlarga singdiriladi.

2) Chaqiriqlar, shiorlar va ramzlar

Asosiy qadriyatlar va kompaniyaning g‘oyalari faqatgina dasturlarda, me’yoriy xujatlarda, nizomlardagina emas chaqiriqlar, shiorlar va ramzlarda o‘z aksini topishi kerak.

3) Afsonalar, miflar va ularning qaxramonlari

Barcha zamonaviy korporativ madaniyatning rivojlanishida odatda turli xil mifologiyaga yondashib yasaladi. Buning asosiy maqsadi shundan iboratki yangi kelgan ishchilar yoki kompaniya mijozlari o‘zlarini o‘zgacha bir kichik bir olamga tushib kolgandek xis qilishlari kerak. Kompaniyaning o‘ziga xosligi uning imidjini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak. Ba’zi xollarda kompaniya asoschilari to‘g‘risida uydima afsonalar xam to‘qilsa bu kompaniya faoliyatiga ijobiy ta’sir etadi.

4) An’analar, rituallar va tadbirlar

An’analar, rituallar va tadbirlar tashkilotning bosh qadriyatları yo‘nalishlarini namoish qilishga asos bo‘li xismat qiladi. Bundan tashqari ular xodimlarni, ulardan kutilayotgan xulq-atvor na’munalariga va mehnat jamoasidagi o‘zaro aloqalar me’yorlariga chaqiradi.

5) O‘ziga xos uslublar

²¹ Капитонов Э. А. Корпоративная культура: стратегические направления развития социально-трудовых отношений // Социс.–2010.– № 9. – С. 48–56. бетлар

Kompaniyaning korporativ uslubi –muayyan vizual kommunikatsiya shakllarini qurish va grafik qoidalar to‘plamidir. Ular bitta g‘oyaga asoslagan tarzda quydagicha vazifani o‘z ichiga oladi: Tashkilotni tanitish qaratilgan harakatlar va tashlitoning kursatadigan xizmati yoki ishlab chiqaradigan tovarlarini to‘g‘risidagi ma’lumotlar iste’molchini xotirasida kolishga karatilgan bo‘lishi kerak.²²

Korporativ madaniyat tashkilot va uning xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minab beruvchi vosita bo‘lib xizmat qilishi zarur. Hozirgi kunda juda ko‘plab kompaniyalar o‘zlarining o‘ziga xos korporativ madaniyatni shakllantirishmoqda. Bu albatta jahon tajribasida sinalgan bo‘lib kompaniyaning imidjini yaxshilash, iste’molchilarda yashxi ta’surot uyg‘otish, mehnat unumdarligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, madaniyatni shakllantirish va uni keyingi boshqaruvi murakkab, ko‘pqirrali, ko‘plab moddiy va nomoddiy resurslar talab etadigan jarayondir. Chunki madaniyat faqatgina kompaniyaning ichidagina emas balki uning tashqarisida ham ahamiyatli bo‘ladi. Shuning uchun korporativ madaniyatni o‘rganish sotsial tadqiqotlarni ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Multikulturalizm va marginallik tushunchasini izihlang?
2. Multikulturalizm va marginallik va mehnat unumdarligi o‘zaro bog‘liqligi nimada?
3. Korporativ madaniyatdagi maxsus uslublarni ahamiyati nimada?

Adabiyotlar:

1. Аберкромби Н., Хилл С., Тернер Б. С. Социологический словарь /Пер. с англ.– М., 2010.
2. Баренбойм П. Глобализация в сфере корпоративного управления: возможные негативные последствия: Сборник статей «Актуальные проблемы корпоративного управления».– М.: Юридический дом «Юстицинформ», 2010.
3. Капитонов Э. А. Корпоративная культура: стратегические направления развития социально-трудовых отношений // Социс.– 2010.– № 9. – С. 48–56. бетлар
4. Кремнева Н. Ю. Формирование корпоративной культуры: инновации и стереотипы // Социс.– 2007 – № 7. – С. 52–54.
5. Погребняк В. А. Культура организаций как объект регулярного управления // Вопросы управления предприятием.– 2012.– № 1 (13).

Internet resurslari

1. www.lib.socio.msu.ru
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>

²² Кремнева Н. Ю. Формирование корпоративной культуры: инновации и стереотипы // Социс.– 2007 – № 7. – С. 52–54.

4-MAVZU: Etnosotsiologiya va sotsial antropologiya fanlarida identiklik sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o‘rni

Reja:

1. Globallashgan dunyo va kundalik hayotning uzviy aloqadorlik jarayonlarini aniqlash
2. O‘zgaruvchan axborotlashgan dunyoda kundalik hayotning o‘rni va ahamiyatini ochib berish
3. Muqaddaslik kundalik hayotning sikli sifatida

Tayanch iboralar:

Etnosotsiologiya, kundalik makon, ijtimoiy makon, globallashuv, hayot sikllari, kundalik turkumlash, ommaviy madaniyat, elitar madaniyat, submadaniyat, madaniyat va iqtisod, madaniyat va siyosat, madaniyat va fan, madaniyatda o‘zgarishlar. madaniyatning xilma-xilligi, madaniy talvasa (shok).

Dunyoqarash sifatida “muqaddaslik” kategoriyasi o‘zgaruvchan bo‘lmagan qadriyat hisoblanadi. Shu bois unga ulug‘vorlik ahamiyati bilan qaraladi. Uning timsoli borliqning qaysidir ma’nodagi muhim tavsifini o‘zida ifodalagandek gavdalantiriladi. Kishiga avval muqaddaslikning holatini his ettirib, keyin nigoz orqali jismini payqashga, yoki avval jismni paypaslab ko‘rib, so‘ngra ruhiy his etishga chorlanadi. Falsafiy nuqtai-nazardan olib qaralsa, uning ontologik va gnoseologik; sotsiologik jihatdan: fenomenologik va aksiologik tasvirini berish mumkin. Ontologik holatda muqaddaslik – “umumiylar borliqdan aniq reallik sari” borishi belgilansa, gnoseologiyada u – “etib bo‘lmaydigan” (sirli) darajadagi bilimlar ifodasini beradi. Fenomenologik sotsiologiya muqaddaslikni “hayrat” bilan tasvirlasa, aksiologiya – “mutlaqlilik”, ya’ni chuqur anglangan mushohada bilan aks ettiradi. Mavzuning ilmiy talqini “ratsional” va “irratsional” jihatlarni o‘zida ifodalaganligi uchun, ilmiy tahlilni ushbu atamalarning sotsiologik xususiyatlaridan boshlamoqchimiz.

“Ratsionallik” – oddiy jumla bilan tushuntirsak, hayotga bo‘lgan munosabatda va dunyonи anglashda aql bilan mushohada yuritish ma’nosini beradi. “Ratsionallik deganda “aql”ni, irratsionallikda esa “mistika”, ya’ni yashirin, sirli hodisalar tushuniladi” [1-105]. Tadqiqotchilar “irratsionallik”ni turli masalalardan qidirishga harakat qilishadi. Ammo ularning ko‘pchiligi ushbu atamaning ma’nosini to‘liq ifodalanmagan yoki anglanmagan holda, istalgan tomonga talqin qilib foydalanadilar. Aslida, “irratsionallik”ni dalillar bilan va qonuniy asosda; empirik va ratsional tarzda; tasodifiy va zaruriy; psixologik va transsident (hissiy tajribadan tashqariga chiqib ketish); hukmronlik, ta’sir o‘tkazish va o‘zboshimchalik; jozibadorlik, instinktlar va ong ostiga joylashgan yovuz niyatlichkeit va ehtiyyotkorlik; mulohazakorlik va oqilona rejalar; qalbga yashiringan chuqur hissiyotlar va insonparvarlik; his etish, idrok qilish, bashorat belgilari va sirli yashirin ichki tuyg‘u bilan ifodalash mumkin [2 – 102-103]. Qisqasi, har qanday irratsionallikda ratsionallik o‘z ifodasini topganidek, mavjud ratsionallikda ham irratsionallik o‘z ifodasini topadi. Shu bois biz o‘z tadqiqot ishlarimizda ratsionallik bilan irratsionallikni bir-biriga qarshi qo‘yish, yoki butunlay ajratib tashlash fikridan yiroqmiz. Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan “muqaddaslik”da aynan shu holat namoyon bo‘lib, uni boshqa ijtimoiy masalalarda ham sinab ko‘rish mumkin.

R.Ottoning “ratsional” va “irratsional” holatlar to‘g‘risidagi qarashlarini tahlil etar ekanmiz, uning diniy munosabatlarda irratsionallikka yondashuvi muhimdir. “Dinda irratsional holatlarning doimiy mavjudligi va bardavom turishi, uni ratsionallikka murojaat qilishdan saqlaydi. Shuningdek, dinning o‘zida mavjud ratsional holatlarni saqlashi fanatizm va mistikaga og‘ib ketishdan asraydi. Bu esa o‘z navbatida madaniy va insoniylikka asoslangan diniy munosabatlarni kuchaytiradi” [3 – 217-218]. Buni oddiy tilda “oltin masofa” saqlash, deb tushunish mumkin. Markaziy Osiyo, birinchi navbatda O‘zbekiston sharoitida “oltin masofa” qoidasiga amal qilish muhim, deb hisoblaymiz. Aholining turmush va tafakkur tarzi hududlar miqyosida bir joydan ikkinchi joyga o‘tib borgani sari o‘zgaruvchanligini, shaharlar bilan qishloqlar o‘rtasida farqlarning kattaligi, poytaxt bilan viloyatlar markazlaridagi infratuzilmaviy xizmatlardagi farqlarning o‘ziyoq ijtimoiy-diniy munosabatlarda ratsional va irratsional yondashuvlarda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yish kerak emasligini talab etadi.

Sotsiologiya, falsafa, psixologiya, antropologiyaga oid ilmiy adabiyot, tarixiy manbalarda din va diniy munosabatlarning o‘zagi hisoblangan “muqaddaslik” mavzusi botiniy va zohiriyl tafakkurga asoslangan munozarali bahslarga sabab bo‘lib kelgan. “Muqaddaslik” so‘zi *sacer* (xudoga bag‘ishlamoq) va *sanktus* (hurmatga loyiq, ulug‘vorlik, yuksaklik) ma’nolarini anglatib, yaratuvchi, ya’ni xudoning yuksak ahamiyatini ko‘rsatish bilan bog‘liqdir. “Muqaddas” atamasi esa – “ilohiylik” so‘zining muqobili sifatida keladi. “Muqaddaslik” atamasi etimologiyasi lotinda “*alohida*”, “*uzoqlashtirilgan*” ma’nolarini anglatuvchi *sacer* so‘ziga borib taqaladi. Dastavval unga nisbatan ko‘p sonli diniy ta’qilalar – *tabu* mavjud bo‘lgan; o‘ziga yomon narsalarni yuqtirib olmaslik uchun tegish mumkin bo‘lmagan; qo‘rqinch va nafratga sababchi narsalar “muqaddaslik” sifatida ifodalangan. Ibtidoiy insonning “muqaddas” narsalarga nisbatan dastlabki hissiy ta’siri ko‘pincha salbiy bo‘lgan [4 – 86-87].

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida “muqaddaslik” atamasi ilk marotaba XX asr boshlarida *neokantizm* vakili bo‘lgan nemis faylasufi V.Vindelband tomonidan (1848-1915) qo‘llanilgan. U o‘z maqolalaridan birida “muqaddaslik”ga ta’rif berar ekan, uni diniy omil, aniqrog‘i *ziyoratgohlar* bilan bog‘lab ko‘rsatadi: “Ziyoratgoh – bu transsident (muqaddas – K.K.) voqe’lik sifatida qabul qilinuvchi haqiqiylik va go‘zallikni me’yoriy tarzda anglash demakdir” [5-20]. V.Vindelband ma’naviyat muhitini “muqaddaslashtirish”da I.Kant izidan borgan holda *muqaddaslik* tushunchasini me’yoriy tafakkurning bir ko‘rinishi sifatidagi *vijdon* kategoriysi deb ifodalaydi. U *ziyoratgohlar* timsolida *muqaddaslikni* ifodalar ekan, avvalambor unda mujassam bo‘lgan *ilohiy* tafakkurdagi me’yorlarni umumiy ijtimoiy kuch (quvvat)ga ega bo‘lishligi, ushbu kuchning shaxsiy tajribadan yuqori bo‘lgan aloqalardan ustunligi va ijtimoiy-ruhiy hayotning ma’naviy asosini ochib beruvchi metafizik voqe’lik bilan bog‘laydi. Talaffuzda u ko‘chma ma’noda kelsa-da, ijtimoiy-ruhiy kechinmalarda “*alohida ahamiyatga ega, dahlsiz, noyob*” kabi sifatlarni namoyon etadi.

Bizningcha dunyoqarash, xususan diniy va dunyoviy dunyoqarash to‘g‘risida fikr yuritganda bir tomonlamalikdan chekinish kerak bo‘ladi. Negaki qaysi dunyoqarash afzal, qaysisi jamiyat manfaatlariga zid degan savol atrofida mubohasa qilish tadqiqotchini chegaralanishga olib keladi, xolos. Shuning uchun biz bu ikki jamiyat hayotida ham

ijobiy, ham salbiy tomonlari o‘ziga xos ravishda kechadi, deb bemalol mulohaza yuritishga haqlimiz. Shu bilan birgalikda diniy va dunyoviy dunyoqarash to‘g‘risida fikr bildirganimizda, ular bir-birlarini to‘ldirib yoki tuzatib borishini ham e’tirof etish lozim bo‘ladi.

“*Muqaddaslik*” tushunchasi tahlil etilsa, uning dunyo dinlaridan ancha qadimiy ibora ekanligini his etish qiyin emas. Ushbu tushunchaga o‘xhash iboralar turli etnoslarning tillarida uchraydi, ammo mazmunan e’tibor qilinsa, uning o‘zagi hind-yevropa asosiga borib taqaladi: “*svet*” – pravoslav slavyan tilida, “*sventas*” – boltiq bo‘yi xalqlari tilida, “*spenta*” – forsiy-eron tillarida qo‘llaniladi [6 – 8]. Keltirib o‘tilgan leksik misollarda bir jihatga e’tibor qaratish lozim, ya’ni “*muqaddaslik*” hindlar va xristianlikka mansub aholi orasida boshqalarga nisbatan ko‘p qo‘llaniladi. Eng oddiy tadqiqotchi ham hind yoki o‘rta asr xristianligiga oid kinofilmlarni tamasha qilib, uni kontent-tahlil etsa, butun film jarayonida ushbu atamaga tez-tez murojaatlar bo‘lishini kuzatadi. Turli jabhalarda “*muqaddaslik*” hajmining ortib borishi, ijtimoiy tizimni belgilovchi hodisalarning tushunish an’anasi va birlashtiruvchi bo‘g‘inni tashkil etadi. Bizning fikrimizcha “*muqaddaslik*” tuyg‘usiga bo‘lgan intilish hajmining ortib borishi alohida hayot xosilasini tashkil etuvchi me’zonlar diniy hodisalardan tashqari “*inson*” (ajdod, ota, ayol, ona), “*joy*” (er, Vatan, o‘lka, makon), “*timsol*” (suv, jonzot, o‘simplik, tosh), “*voqe’lik*” (urush, jang), “*xarizma*” (ulug‘vorlik, shaxs) va shu kabilar. K.K.)ni hosil qiluvchi kuchlarning harakati sifatida, obrazlar yoki ramz (belgi)ni ifodalaydi. “*Muqaddaslik*” hodisasini sotsiologik jihatdan o‘rganish zamonaviy insoniyatning nafaqat ijtimoiy-psixologik, balki boshqa muammolarini ham anglashda muhim va zarur.

Rossiyalik tadqiqotchi V.Toporovning ta’kidlashicha, “*muqaddas joy*”, “*muqaddas predmet*”, “*muqaddas inson*” kabi hodisalar atrofida yangicha muhitni shakllantiruvchi “nuqta”lar paydo bo‘lib, ular odamlarga foni dunyodan o‘tib ketgan ko‘plab ajdodlarning g‘oya va hissiyotlarini ma’lum sohalarda shakllanishiga xizmat qiladi. Yangi voqe’lik muqaddaslik hissiyoti bilan vujudga keladi [7 – 10]. Biz ushbu hodisani «*muqaddaslik kodi*» sifatida talqin etishni taklif etamiz. Muqaddaslikning negizini xalqlarning “*milliy kodi*” yoki “*madaniyat kodi*” tashkil etishi mumkin. *Madaniy kod* – bu xalqning asrlar mobaynidagi tarixiy rivojlanishi davomida tizimlashgan identiklik, mentalitet, ma’naviy- axloqiy ustakovkalar, ijtimoiy xarakterni namoyon etuvchi o‘ziga xos sayqallangan arxetip, namuna va qadriyatlarni namoyon etadi. Aynan xalqning asosiy qadriyatlarni tashkil etuvchi milliy psixologiya, hayot yo‘li va hulq-atvori madaniy kodni ifodalaydi [8]. Afsuski, bugungi kunda mahalliy sotsiologik tadqiqotlarda yetarlicha “*milliy*” yoki “*etnik*” kod mavzusida ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmayapti.

“*Muqaddaslik*” kodi vaqt va makon doirasida namoyon bo‘ladi. Muqaddas makonning namoyon bo‘lishi “boshlang‘ich nuqta”ni aniqlash, betartib bir turg‘unlikda o‘z yo‘nalishini anglab olish, “dunyoning yaralishi” va unda real hayot kechirish imkonini beruvchi ta’limotlar to‘g‘risidagi bahs-munozaralarga bog‘liq. Albatta, an’anaviy

jamiyatlarda diniy va ilmiy munozaralar juda yuqori bahslarga borib taqlalmaydi. Chunki an'anaviylikda “vaqt” va “makon” ko‘lami sotsium uchun bir tomonlama aniq belgilab qo‘yiladi. Uning doirasini “yorib” chiqish, muallaq makonga tushib qolish bilan teng. Asli millati rumin bo‘lgan amerikalik sotsiolog M.Eliadening so‘zlariga ko‘ra: “Dindor inson hamma vaqt “Olamning markazi”da joylashishga intiladi. Yashamoq uchun har kim o‘z dunyosini yaratish lozim. Biroq, yaratilgan hech bir dunyo o‘z-o‘zidan betartib, bir turdag‘i va nisbiy makonda tug‘ilmaydi. Makondagi boshlang‘ich nuqta, ya’ni “Markaz”ning aniqlab berishi orqali biz kutgan, yoki to‘qnash kelgan Olam (muqaddaslik) yaraladi” [9 - 23]. Teologik fanlarda “muqaddaslik” yoki “Olamni muqaddaslashtirish” yagona “Yaratuvchi”ga itoat qilishni anglatadi. Buning ramzi sifatida ilohiylikni “tabarruk” qilish marosimi namoyon bo‘ladi. Mazkur marosimni amalga oshirish natijasida kundalik hayot dunyoviylikka aylanib, ilohiy mazmun kasb etadi. Muqaddaslik bunda ma’naviy va ruhiy olamga xos tarkibiy qismlarni qamrab oladi.

Diniy e’tiqodlar sodda yoki murakkabligidan qat’i nazar, aynan bir jihatga ega. E’tiqod odamlar tasavvuridagi real (mavjud) va ideal (mukammal) hodisalarini ikki jihatga: a) diniy va b) dunyoviy atamalar yordamida to‘laqonli ravishda ifodalananuvchi, ikki qarama-qarshi turga ajratuvchi tasnifga ajratadi. Biri o‘zida jamiki muqaddas narsalarni jamlasa, boshqasi esa dunyoga oid bo‘lgan barcha narsalarni qamrab oladi. E’tiqodga oid tafakkurning o‘ziga xos jihatni aynan shundan iborat. Har qanday e’tiqod va unda mujassam bo‘lgan afsona, aqida va rivoyatlar muqaddas hodisalarning tabiatini, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyat va imkoniyatlarini, tarixi bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarni dunyoviylik tabiatini ifodalovchi tasavvur yoki tushunchalar tizimiga jamlaydi. Lekin muqaddas hodisalar sifatidagi omillarni faqat Xudolar yoki Ruhlarga oid deb tushunmaslik lozim; bunda, tog‘ cho‘qqisi, ulkan daraxt, qadimiy buloq, harsang tosh, qurigan daraxt tanasi, eski muhtasham uy va shu kabilarni, xullas, ta’kidlash mumkinki har qanday narsa va hodisa muqaddas bo‘lishi mumkin [10 – 217]. Bizningcha mahalliy tadqiqot ishlarimizda mumtoz sotsiologiyaning buyuk nazariyotchisi Emil Dyurkgeymning bildirgan ushbu fikr-mulohazalari doirasida ratsional va irratsional yondashuvni bugungi kun doirasida ko‘rib chiqishimiz, qaysidir xususiyatlar irratsional ekan, uni ratsionalga tomon burish – ratsionallikda esa butkul chuqurlashib ketishdan ehtiyyot bo‘lish lozim, degan xulosaga kelish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Отто Р. Священное. Об иррациональном в идеи божественного и его соотношение с рациональным. / Изд-во Санкт-Петербургского университета, - С. 105;
2. Отто Р. Священное. Об иррациональном в идеи божественного и его соотношение с рациональным. / Изд-во Санкт-Петербургского университета, - С. 102-103;
3. Отто Р. Священное. Об иррациональном в идеи божественного и его соотношение с рациональным. / Изд-во Санкт-Петербургского университета, - С. 217-218;
4. Ильченко В.И., Шелюто В. М. Духовная культура в пространстве сакрального: Монография / – СПб: Изд-во «Ъ», Луганск: ООО «Пресс-экспресс», 2016. – С. 86-87;

5. Виндельбанд В. Прелюдии: философские статьи и речи / Избранное: Дух и история. – М., 1995. – С. 20
6. Топоров В. Н. Святость и святые в русской культуре / Т. 1: Первый век христианства на Руси. М.: «Яз. рус. культуры», 1995 – С. 8
7. Элиаде М. Священное и мирское / пер. с фр. Н. К. Грабовского – М.: Изд-во МГУ, 1994. – С. 23
8. Леви-Стросс К. Первобытное мышление/ пер. с фр.,вступ. и прим. А. Б. Островского– М.: Республика, 1994. – С. 126
9. Ильченко В.И., Шелютко В. М. Духовная культура в пространстве сакрального: Монография / – СПб: Изд-во «Ъ», Луганск: ООО «Пресс-экспресс», 2016. – С. 89.
10. Кайуа Р. Миф и человек. Человек и сакральное. М., 2003. – С. 37

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1- Seminar

Mavzu: Sotsiologiya fanining tadqiqot obyekti borasidagi masalalar

Mashg'ulotda ko'rildigan masalalar: Zamonaliv sotsiologiya fanidagi ustuvor masalalar. Ijtimoiy hayot sotsial obyekt sifatida. Sotsial-siyosiy nazariy ta'limotlar. Sotsiologyaning amaliy funksiyasi.

Seminar mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruuhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahs bo'lib, tinglovchi larda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi:

Izoh: 1) bir tinglovchi ga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;

2) o'qituvchi (boshlovchi) tinglovchi larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o‘quvchi (talaba)larga oldindan ma’lum qilinadi

Jarayon o‘qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

Tinglovchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo‘yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo‘yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Yechim bo‘yicha asosiy fikrni bayon etadigan o‘quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo‘sishimcha qilish istagida bo‘lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O‘qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

“BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod tinglovchi larga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda tinglovchi lar guruh yoki jamoada ishslashlari mumkin. Guruhda ishslashda mashg‘ulot yakunida guruqlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruqlar faoliyati quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:



Har bir guruh umumiylar sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg‘ulot yakunida loyiha bandlari bo‘yicha guruqlarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruqlar umumiylar sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g‘oyalarni umumlashtiradi

2- Seminar

Mavzu Sotsiologiyada “meyor” va “deviantlik” tushunchalarining nazariy metodologik hususiyatlari masalasi

Mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalar: Sotsiologiyaga fanida meyor tushunchasiga berilgan ta’riflar. Jamiatning ijtimioy xulq-atvor meyorlari. Deviatlik tushunchasiga turlicha yondashuvlar

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

“BLITS-SO‘ROV” METODI

“Blits-so‘rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, tinglovchi larning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Mashg‘ulatlarda metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o‘quvchilar e’tiboriga havola qiladi

O‘quvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo‘nda, aniq javob beradi


Guruh (juftlik)da ishslashda bir nafar o‘quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to‘ldiradi, (biroq, fikrlar akrorlanmasligi lozim)

Metodni qo‘llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g‘oyalarning mohiyati tinglovchi lar tomonidan og‘zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“VENN DIAGRAMMASI” STRATEGIYASI


Strategiya tinglovchi larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:



Strategiya tinglovchi lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



3- Seminar

Mavzu: Sotsiologik nazariyalarda mehnat faolligini o‘rganishga qaratilgan yondashuvlar

Mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalar: Mehnat faolligi tushunchasi va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Mehnat faolligiga ta’sir qiluvchi omillar. Mehnat faolligi va mehnat bozori

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruuhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

“ZAKOVATLI ZUKKO” METODI


Bilimlarni puxta o‘zlashtirishda tinglovchi larning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metod tinglovchi larda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llash o‘z xohishiga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan tinglovchi lar uchun qulay imkoniyatni yaratadi.

Bunda tinglovchi lar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri, aniq javob qaytara olishlari zarur. Murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik

qiymatini topish asosida tinglovchi larning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash orqali tinglovchi larning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:



4- Seminar

Mavzu: Zamonaviy sotsiologiyada korporativ madaniyat masalasini o‘rganish

Mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalar: Korporativ madaniyat tushunchasi. Korporativ madaniyat va mehnat unumдорлиги. Korporativ madaniyatдаги maxsus uslublar

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruuhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zлари bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”


“BALIQ SKELETI” METODI

Metod tinglovchi larda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda tinglovchi larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Metoddan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o‘qituvchi tinglovchilarni metodni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi;
- 3) guruuhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruuhlar o‘z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;

tinglovchilar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



5-Seminar

Mavzu: Sotsiologiyada ayrboshlash nazariyalari

Mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalar Ayrboshlash nazariyasi. Tashkilotlarda ijtimoiy ayrboshlash. Ayrboshlash xulq-atvori. Ijtimoiy ayrboshlashda muvozanatsizlikni muvozanatlash

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruuhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig‘i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, tinglovchi larda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

Izoh: 1) bir tinglovchi ga ikki marta so‘zga chiqishga ruxsat etilmaydi;

2) o‘qituvchi (boshlovchi) tinglovchi larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat’iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so‘zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o‘quvchi (talaba)larga oldindan ma’lum qilinadi

Jarayon o‘qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

Tinglovchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo‘yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo‘yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Yechim bo‘yicha asosiy fikrni bayon etadigan o‘quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo‘srimcha qilish istagida bo‘lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O‘qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

Har bir guruh umumiyligini asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg‘ulot yakunida loyiha bandlari bo‘yicha guruhlarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhlari umumiyligini alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g‘oyalarni umumlashtiradi

6-Seminar

Mavzu: Sotsiologiyada oqilona tanlov nazariyalari

Mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalar: Oqilona tanlov nazariyasi. O‘ziga

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlari shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”


“ZAKOVATLI ZUKKO” METODI

Bilimlarni puxta o‘zlashtirishda tinglovchi larning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metod tinglovchi larda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llash o‘z xohishiga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan tinglovchi lar uchun qulay imkoniyatni yaratadi.

Bunda tinglovchi lar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri, aniq javob qaytara olishlari zarur. Murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tinglovchi larning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash orqali tinglovchi larning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:



V. KEYSLAR BANKI

Mini keys 1.

Sotsiologiya fanida yozaga kelgan yangi nazariyalarni tahlil etish

Jamiyatning borasida tadqiqot olib borishda aniq hulosa chiqarish uchun kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan modellar ahamiyatli hisoblanadi.

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Jamiatni ijtimoiy rivojlantirishi borasidagi ilmiy farazlar bilan tanishish .
- Ijtimoiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi va to'sqinlinlik qiluvchi omillarni bir-biri bilan solishtirish .
- Kompyuterda ijtimoiy jarayonlarni modellashtirishga oid zarur dasturiy ta'minotlar tanlovi

VL MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lif mavzulari

1. Sotsiologiyada XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan nazariyalar tahlili
2. Sotsiologiya va ijtimoiy boshqaruv muammosi
3. Sotsiologiyada isbotini topmagan nazariyalar tahlili
4. Inson kapitali va ijtimoiy kapital
5. Ijtimoiy ayriboshlash ijtimoiy munosabatlarning muhim ko'rinishi sifatida
6. Korporativ madaniyat va mehnat unumdarligi
7. Korporativ madaniyatning o'ziga xosligi sabablari
8. Oqilona tanlov nazariyalari
9. Mehnat faolligi sotsial masala sifatida
10. Mehnat faolligiga ta'sir qiluvchi omillar
11. Sotsiologiya va global o'zgarishlar
12. Sotsiologiyaning amaliy ahamiyatini ortishi
13. Sotsiologiyadagi yangi nazariyalar tahlili

VII. GLOSSARY

Ingilizcha	Ruscha	O‘zbekcha	ta’rifi
Behavioral interviewing	Povedencheskiye intervyyu	Xulq-atvor intervyyusi	Ish joyini salohiyati nomzodlarni basholaydi, izini tutish intervyyu intervyyu. Savollar odatda "shaqida menga xabar bering." "Tasvirlab" yoki bilan boshlanadi.
Behavioural level	Povedencheskiy uroven	Xulq-atvor darajasi	Insonlar xarakatining o‘zaro munosabatdagi kategoriyasini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlardagagi tahlil darajasi
Bueracracy	Byurokratiya	Byurokratiya	aniq hokimiyat iyerarxiyasiga, amaldorlar xulq-atvorini belgilab beradigan ko‘rsatma va yo‘riqnomalarga ega bo‘lgan tashkilot tipi, amaldorlar shtati.
Career	Kapitalniye resursi	Kapital resurslar	mahsulotlar va tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan pul.
Career planning	Karyera	Karyera	amalga oshiriladigan ish uchun mansab maqsadi.
Career portfolio	Planirovaniye karyeri	Rejalashtirilgan karyera	Mansab, martaba tayyorlash jarayonini rejalashtirish Ishga qabul qilish bo‘yicha baholash va bo‘lajak mansab qarorlar qabul qilish.
Carrying capacity	propusknaya sposobnost	O‘tkazish imkoniyati	Ekologik antropologiyada mavjud rusurslar sharoitida aholining maksimum imkoniyati tushunchasi sifatida foydalilanidigan atama

Commensality	kommensalizm	kommensalizm	Birgalikda ovqatlanish.
Communalism	kommunalizm	kommunalizm	Bu atama jamoatchilik va jamiyat hayotini anglatuvchi tushuncha
Comparative religion	Sravnitelnaya religiya	Qiyosiy din	Turli dirlarni qiyoslashni o‘rganuvchi akademik fan

Cosmogony	kosmogoniya	kosmogoniya	koinotni yuzaga kelishi borasidagi nazariya
acculturation	akkulturatsiya	akkulturatsiya	Boshqa bir jamiyatning madaniyatini hususiyatlarni ommaviy tarzda o‘ziga ko‘zirib olish jarayoni
Dependency theory	teoriya zavisimosti	Bog‘liqlik nazariyasi	Rivojlashishning past darajasi boshqa qismlarga bog‘liqligi borosidagi nazariya
Diaspora	Diaspora	Diaspor	O‘zlarning dastlabki yashash joylaridan ko‘chgan odamlar guruhi
Diglossia	Rasshepleniye yazika	Nutq o‘zgachaligi	Bir til doirasida “yuqori” va “past” so‘zlashish uslubi. Turli ijtimoiy sharoitda bu o‘ziga xos yuz beradi
Duolineal	Dvoynoy podxod	Ikki chiziqli yondashuv	Urug‘chilikning tadqiq qilishda sinonim bo‘lgan ikki tizimni o‘rganish
Dysfunction	Disfunksiya	Disfunksiya	Beqarorlik keltirib chiqarishga olib kelgan funksiya. Bu atama funsional antropologiyadan ko‘ra sotsiologiyada ko‘proq uchraydi.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ўзбекистон Республикаси Президентининг асарлари

47. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
48. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
49. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
50. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
51. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

52. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
53. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
54. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
55. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
56. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
57. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновatsion ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
58. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сон Фармони.
59. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июнь “2019-2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини ривожлантири чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4358-сонли Қарори.
60. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.
61. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

62. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.

63. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 22 февралдаги “Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-куватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5667-сонли Фармони

64. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

65. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони.

III. Maxsus adabiyotlar

66. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
67. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
68. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
69. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
70. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
71. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
72. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство ЦРНС, 2015. – 318 с.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

73. Барков С. А., Зубков В.И. Социология организаций. М.: ЮРАЙТ, 2018.
74. Барков С.А. Организация и рынок: противоборство или согласие? М.: Изд-во Московского университета, 2008.
75. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.

76. Больц Н. Азбука медиа. / Пер. с нем. Л.Ионин, А.Черных. - М.: Европа, 2011. – 136 с. <http://en.bookfi.net/book/1405627>

77. Гидденс Э., Сэттон Ф. Основные понятия в социологии. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2018.

78. Гулобод Кудратуллоҳ қизи, Р.Ишмуҳамедов, М.Нормуҳаммедова. Анъанавий ва ноанъанавий таълим. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази” нашриёти, 2019. 312 б.

79. Ибраимов А.Е. Масофавий ўқитишининг дидактик тизими. методик қўлланма/тузувчи. А.Е. Ибраимов. – Тошкент: “Lesson press”, 2020. 112 бет.

80. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

81. Йоас Х., Кнебель В. Социальная теория. 20 вводных лекций. – СПб.: Алетейя, 2015. <https://search.rsl.ru/ru/record/01007580496>

82. История социологии (XIX – середина XX века). – М.: ИНФРА-М, 2004. <https://search.rsl.ru/ru/record/01002465303>
83. Ишмуҳамедов Р.Ж., М.Мирсолиева. Ўқув жараённида инноватсіон таълим технологиялари. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 б.
84. Кастельс М. Власть коммуникации: учеб. пособие / М. Кастельс; пер. с англ. Н. М. Тылевич; под науч. ред. А. И. Черных; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2016. — 564 с. <https://yadi.sk/d/UC0SzNIk3Mj7qk>
85. Кимелев Ю.А., Полякова Н.Л. Модерн и процесс индивидуализации: исторические судьбы индивида модерна. – М.: ИИЦ
86. Коломиец В. П. Социология массовой коммуникации в обществе коммуникационного изобилия // Социологические исследования. 2017. №6. С.3-14. http://www.isras.ru/index.php?page_id=2624&jid=6721&jn=socis
87. Конецкая В.П. Социология коммуникации / В.П. Конецкая. - М.: Международный университет бизнеса и управления, 1997. – 304 с.
88. Муслимов Н.А ва бошқалар. Инноватсіон таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.
89. Назаров М.М. Массовая коммуникация и общество. Введение в теорию и исследования / М.М. Назаров. — М.: Либроком, 2014. — 354 с.
90. Олий таълим тизимини рақамли авлодга мослаштириш концепцияси. Европа Иттифоқи Эрасмус+ дастурининг кўмагида. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
91. Организационное поведение/ Под ред. С.А. Баркова. – М.: ЮРАЙТ, 2015.
92. Осипова Е.В. Патриархи социологии. – М.: Институт социально-политических исследований РАН, 2011. <https://search.rsl.ru/ru/record/01005063843>
93. Осипова Н.Г. Западная социология в XX столетии: ключевые фигуры, направления и школы. – М.: Канон+РООИ «Реабилитация»,
94. Политика и управление в социальной сфере/ Под ред. Н.С.Григорьевой, Н.С.Соловьева. М.: АРГАМАК-МЕДИА, 2018
95. Усмонов Б.Ш., Ҳабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Т.: “Tafakkur” нашриёти, 2020 й. 120 бет.

IV. Internet saytlar

48. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги: www.edu.uz.
49. Бош илмий-методик марказ: www.bimm.uz